

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI  
VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI

“IJTIMOIY MADANIY FAOLIYAT” TA‘LIM YO‘NALISHI

“MADANIYAT VA SAN‘AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA  
BOSHQARISH” KAFEDRASI

“O‘ZBEK MILLIY MADANIYATI RIVOJIDA URF-ODAT VA  
QADRIYATLARNING O‘RNI ”

MAVZUSIDAGI

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Bitiruv malakaviy ish kafedrada  
dastlabki himoyadan o‘tdi”

“Madaniyat va san‘at  
muassasalarini tashkil etish va  
boshqarish” kafedrasining \_\_\_\_\_ -  
sonli yig‘ilish bayonnomasi

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2014 yil

Kafedra mudiri \_\_\_\_\_

X.Shodiyev

**Bajardi:** “Ijtimoiy madaniy faoliyat”  
ta‘lim yo‘nalishi IV-kurs bitiruvchisi

Tojiboyev Otabek Ravshanovich

**Ilmiy raxbar:** Katta o‘qituvchi  
A.Boboxo‘jayev

Toshkent-2014 yil

# M U N D A R I J A

<b>Kirish .....</b>	<b>1</b>
<b>I BOB O‘zbek milliy madaniyati va uning taraqqiyoti.....</b>	
<b>1.1. O‘zbek milliy madaniyati tarixi va rivojlanish bosqichlari.....</b>	<b>3</b>
<b>1.2. Hozirgi davr o‘zbek milliy madaniyati holati va istiqbollari.....</b>	<b>13</b>
<b>II O‘zbek xalqining urf odati va madaniy qadriyatlari.....</b>	
<b>BOB</b>	
<b>2.1. Madaniy qadriyatlar va ularning ijtimoiy ahamiyati.....</b>	<b>23</b>
<b>2.2. Oilaviy marosimlar, an’analar va urf-odatlar.....</b>	<b>36</b>
<b>Xulosa.....</b>	<b>45</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....</b>	<b>47</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalar kabi madaniy sohada ham isloxotlar o‘tkazildi. o‘zbek halqining milliy madaniyati asrlar davomida shakllanib, turli bosqin va tazyiqlarniga bardosh berib yetib keldi. hozirgi axborotlashgan va globallasuv jarayoni o‘zbek milliy madaniyatining nazariy asoslarini yaratish dolzarb bo‘lib qoldi. Chunki, dunyo amaliyatida har bir taraqqiy topgan xalq o‘zidan keyingi avlod kelajagiga qayg‘urib keladi. Bunda doimo kelajak avlodning moddiy farovonligina emas, milliy madaniyatimizning bir qismi bo‘lgan ma’naviyatga e’tibor va fuqarolarni ma’naviy jihatdan kamol topib borishi ham nazarda tutiladi. Prezident I.A.Karimov asarlarida ma’naviyatning mazmun-mohiyati, ma’naviy tarbiya omillari va vositalari ma’naviy tahdid va tajovuzlar xaqida fikr yuritish bilan bir qatorda yoshlarning baxtli kelajagi uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etish masalasi birinchi darajali ekanligi uqtiradi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi globallasuv, tezkor jarayonda ma’naviy tarbiyani olib borishda milliy madaniyat masalasiga alohida e’tibor berib, milliy madaniyatning ma’no-mazmuni va uning asosiy tushuncha va tamoyillari, ma’naviy hayot bilan dialektik bog‘liqligi, ahamiyati batafsil taxlil etilib, ilmiy xulosalar berilishidadir.

**Tadqiqot obekti va predmetining belgilanishi.** Bitiruv malakaviy ishning asosiy obekti o‘zbek xalqining mustaqillik yillaridagi milliy madaniyati bo‘lib, uning asosiy predmeti esa milliy madaniyatining nazariy asoslari hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishning maqsadi mustaqillik sharoitida o‘zbek milliy madaniyatining nazariy asoslarini tahlil qilish. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

- Milliy madaniyat tushunchasi va o‘rganilishi yoritiladi;
- asrlar davomida shakllangan o‘zbek milliy madaniyatining taraqqiyot yo‘lining tahlil qilish;

- o‘zbek xalqining azaliy orzusiga ya’ni mustaqillikka erishganidan so‘ng milliy madaniyatimizning ahvoli va taraqqiyot yo‘nalishlarini tadqiq qilish;
- hozirgi axborotlashgan va globallashuv jarayonida o‘zbek milliy madaniyatining nazariy asoslari va bosqichlari o‘rganiladi;
- tadqiqot davomida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar beriladi.

**Bitiruv malaka ishda qo‘llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi.** Bitiruv malakaviy ishda asosan qiyosiy-tahliliy, reproduktiv, xronologik uslublaridan foydalanilgan. Mavzuni yoritish jarayonida tadqiqotchi tomonidan ilmiylik, holislik, tarixiylik tamoyilllariga tayanildi. Asosiy e’tibor yuz bergan madaniy jarayonlarning o‘zaro dialektik aloqadorligi va bir tizimligiga qaratildi. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol g‘oyasidan kelib chiqqan holda yondashildi.

Shuningdek, tadqiqotning nazariy va manbaviy asoslari Prezident I.A. Karimovning milliy madaniyati, ma’naviyat va milliy istiqlol mafkurasiga bag‘ishlangan asarlaridagi ko‘rsatmalari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining milliy ma’naviyatimizni shakllantirishga oid qarorlarida bayon etilgan vorisiylik va tadqiqot olib borishda yagona obektiv usuldan foydalanish ham belgilab berdi.

**Bitiruv malakaviy ish natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Bitiruv malaka ishda ilk bor mustaqillik yillarida o‘zbek milliy madaniyatida yuz bergan transformatsion jarayonlar va innovatsiyalar haqida tahlil asosda yoritildi. Tadqiqotda keltirilgan ma’lumotlar ilmiy asosda bo‘lib, madaniyatshunoslikka oid o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar yaratishda, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti va Respublikaning boshqa oliy o‘quv yurtlarida madaniyatshunoslik bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari tashkil etishda foydalanishi mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishning tarkibi.** Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, to‘rtta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlarlaridan iborat.

## I BOB. O‘ZBEK MILLIY MADANIYATI VA TARAQQIYOTI

### 1.1.O‘zbek milliy madaniyati tarixi va rivojlanish bosqichlari.

Madaniyatimiz tarixi mamlakatimizda, xonadonimizda asrlar davomida yashab kelayotgan qadimiy qadriyatdarda o‘z aksini topgan. Ular go‘zallikni his qilish muhitini yaratgan, xalqimizning buyuk tarixini o‘zida aks ettirgan bo‘lib, o‘sib kelayotgan avlod ongiga tarixiy idrok urug‘larini qadab, ularni yuksak ma‘naviy ruhda tarbiyalab kelgan. Shuning uchun ham keyingi 130 yildan ortiq vaqt mobaynida mamlakatimiz boshdan kechirgan fojialarni butun teranligi bilan tasavvur qilish qiyin. Bu tubsiz jarlikka o‘xshaydi. Lekin bu fojialar o‘z tarixchilarini da‘vat etmoqda, o‘z tarixining yozilishini talab etmoqda. Haqiqat qanchalik achchiq bo‘lmasin, xalqimiz uni bilishi lozim. Shunday ekan, bu tarixni hozirgi kunda yaratish kerak. Axir, gap milliy fojia haqida, milliy boyliklarning ko‘pchilik qismidan mahrum bo‘lib qolganimiz haqida, talaygina madaniy boyliklarimiz tashib ketilgani, chor tuzumi davrida ham, sovet davrida ham ular o‘z zaminidan ajratib qo‘yilgani, bu esa o‘z ortidan nafaqat moddiy, balki juda katta ma‘naviy yo‘qotishlarni boshlab kelgani haqida bormoqda.

Tarixdan shu narsa ma‘lumki, mustamlakachilar eng avvalo bosib olingan xalq, millatni ma‘naviy qashshoqlikka duchor etish yo‘lidan borganlar. Bunday yo‘l istilochilarning tarix sinovidan o‘tgan, sinalgan, ayni paytda ularning mash‘um siyosatlarini yashirib turuvchi yo‘ldir.

Bu jihatdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi mulohazalari diqqatga sazovor: “Xoh o‘tmishda, xoh bugun bo‘lsin, boshqa millat, davlatni o‘ziga qaram qilish niyatida harakat qilgan, qilayotgan kuchlar doimo bir siyosatni yuritganlar, yuritadilar: ya‘ni qaram xalqning ma‘naviy, madaniy, tarixiy merosini yo‘q qilish, undan judo etish. Misol kerakmi?

Sovet davrida o‘zbek millati tarixini buzib qo‘rsatishdan, uni chalkashtirib yoritishdan, ba‘zi sahifalarni umuman ko‘rsatmaslikdan maqsad nima edi? Chor Rossiyasining Skobelev degan generali shunday deb yozgan edi: “Millatni yo‘q

qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi". Xo'sh, shu gaplari tarixchilarimiz biladimi? Afsuski, ko'p olimlarimiz ongida eski tuzum asoratlari mahkam o'mashib qolgan. Ular hozir – mustaqillik sharoitida ham kimdardir qo'rqib, cho'chib gapiradilar"<sup>1</sup>.

Nazarimizda, niqoblangan mustamlakachilik siyosatining tub mohiyatini bundan aniq va lo'nda qilib tushuntirib berishning imkoni bo'lmasa kerak.

Rossiya mustamlakachilari va kommunistik mafkura "alloma"larining boy o'zbek madaniyatini kishilar ijtimoiy ongidan, shuuridan siqib chiqarishga undagan narsa nima? Nima uchun ular o'zbek milliy – madaniy boyliklarini yurtimizdan zo'ravonlarcha olib ketishga harakat qildilar? Buni tushunish uchun tarixga nazar tashlasak bas.

Ma'lumki, Turon, Turkiston o'lkasi qadimdan jahon sivilizatsiyasining asosiy beshiklaridan bo'lgan, bunda qadimshunos olimlarimizning ilmiy izlanishlari, ular qo'lga kiritgan natijalar guvohlik beradi. Darhaqiqat, Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa, Fayoztepa, Sopollitepa, Ayritom saroylarining hashamatli devor bezaklari va ularning betakrorligi o'tmish me'morlarining nozik didli, yuksak bilimni namoyon etish barobarida, o'lkamiz hukumdorlarining qadimgi davrlaridagi hayot va turmush tarzlari juda dabdabali bo'lib, ular behisob boylikka ega bo'lganlarini ko'rsatadi.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, Markaziy Osiy qadim-qadimdan Urartu, Misr, Yunoniston, Bobil, Rim kabi Yaqin Sharq va G'arb davlatlari bilan o'zaro savdo-sotiq ishlarini olib borgan. Turondan o'tgan "Buyuk ipak yo'li" esa Sharqiy Osiyo va Hindistonni O'rta Yer dengizi mamlakatlari bilan bog'liq edi. Bu yo'l ustida Sian, Dunxuan, Yorkent, Samarqand, Termiz, Marv kabi jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shgan shaharlar joylashgan bo'lib, savdogarlar sotiladigan mollar qatorida turli madaniyat, sa'navt va fan sohalari bo'yicha yangiliklarni ham keltirganlar. Chunonchi,, Xitoyga So'g'diyonadan gazlama, gilam, bazak buyumlari va qimmatbaho toshlar, Baqtriyadan tuyalar, Farg'onadan

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998, 24-bet.

arg‘umoq otlar, Badaxshondan la‘l, Hindistondan Xitoyga kumush va fil suyagidan ishlangan buyumlar, ziravorlar va boshqa mahsulotlar olib borilgan.

Albatta, hududimizda milily-madaniy boyliklarning talon-taroj qilinishi, xususan, arab istilosi davrida avjiga chiqdi. Ushbu hududda azaldan yashab kelgan xalqlar mafkurasi va uning asosini tashkil etgan diniy aqidalarning bekor qilinishi va ular o‘rniga yangi din – islomning majburan joriy etilishi o‘lkadagi ijtimoiy – siyosiy, madaniy-mafkuraviy vaziyatni tubdan o‘zgartirib yuborildi. Bosqinchilar o‘lkada amalda bo‘lib kelgan mahalliy yozuvlarni, xususan, xorazmiy yozuvini bekor qilganlar, Xorazmdagi ilm targ‘iboti bilan shug‘ullanadigan ziyolilarni qattiq ta‘qib ostiga olganlar. Chunonchi, Qutayba xattotlarni yo‘qotgan, ruhoniylarni qatl ettirib, ularning kitoblari va o‘rama xat yozuvlarini yondirgan, natijada xorazmliklar yalpi savodsizlikka mahkum etilganlar.

Beruniy va Narshaxiy kabi allomalarning guvohlik berishlaricha, arab istilochilari xalqqa ham modiy, ham m‘naviy jihatdan katta zarar yetkazdi, mahalliy hokimiyat tugatildi, shaharlar, qadimgi madaniyat yodgorliklari, mavjud yozuvlar, kitoblar yondirilib, muhtasham me‘moriy va san‘at namunalari yakson qilingan.

IX asrning ikkinchi yarmida ahvol birmuncha yaxshilana bordi. Somoniylardan so‘ng keyingi asrlarda o‘lkada Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlari vujudga keldi. Shu bilan birga, Yaqin va O‘rta Sharqda shakllangan yosh musulmon davlatlari o‘rtasida iqtisodiy-madaniy aloqalar jonlandi, madaniyat namunalari ayirboshlash, o‘zaro ma‘naviy ta‘sir kuchaydi. Qadimgi fors, hind, arab, yunon madaniy qadriyatlarini negizida adabiyotlarda “musulmon madaniyati” deb nom olgan yangi madaniy qatlam vujudga keldi.

Mazkur madaniy davr yuksalishning yorqin siymolari bo‘lmish Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Rudakiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib kabi daholar Markaziy Osiyo madaniyatining rivojlanishida juda katta va sezilarli rol o‘ynadilar. Arab xalifasi Ma‘mun o‘z vaqtida markaziy osiyolik olimlarni xalifalik markazi bo‘lgan Bog‘doddagi mashhur akademiyasiga olib ketganida, ular bu ilm-fan va madaniyat oliy dargoining ko‘rki bo‘lgan edilar. Qayd etish lozimki, bu

ulug' ma'naviyat darg'alari orasida Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Javhariy, Ibn mansur Marvaridiy kabi yirik allomalar har bor edi. O'rta Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklar orasidan yetishib chiqqan bu mutafakkirlarning nomlari jahon madaniyati tarixi sahifalariga oltin satrlar bilan bitilgandir. Bu yerda arab, fors va turkiy tillarda muayyan tizimga solingan ijtimoiy jarayon yo'lga qo'yildi. Bu davr madaniyati o'zining kuchli insonparvarlik ruhi, odamlarni do'stlik va ahillikka da'vat etishi, aql-zakovatni e'zozlashi bilan umuminsoniy qadriyatlar yuksakligiga ko'tarila oldi. Vatanimiz madaniyati tarixidagi bu uyg'onish davri, birinchi navbatda, qaramlikdan qutilish, mustaqil mafkura, mustaqil ijod, mustaqil ma'naviyat samarasi bo'ldi<sup>2</sup>.

Shuni qayd etish lozimki, uyg'onish davrining ilk bosqichi – IX – XII asrlarda o'zbek milliy madaniyati juda gurkirab riqoj topdi, o'sha davr allomalarining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi cheksiz bo'ldi. Biroq, XIII asr boshlarida O'rta Osiyoga mo'g'ul istilochilarining bostirib kelishi o'lkaning boy madaniy merosini yakson qildi, boshlangan uyg'onish davri madaniyati rivojini izdan chiqardi.

Bosqinchilar mahalliy aholining qarshilik ko'rsatishga bo'lgan irodasini sindirishga urinib, uning boshiga dahshatli qirg'in soldilar, shaharlarni vayron qildilar, u yerdagi uylarni yondirib, qishloqlarni suvga bostirdilar, go'zal me'morchilik inshootlarini kultepaga aylantirdilar, ayollar va bolalarni xo'rladilar, qarshilik ko'rsatib jang qilganlarni ham, xukmdor marhamatidan umid qilib taslim bo'lganlarni ham ayamadilar.

Boshqa barcha istilochilar kabi, mo'g'ul bosqinchilari ham o'lka madaniy va ma'naviy hayoti boshiga bitta balo bo'ldi. Kutubxonalar talanib, kitoblar oyoqosti qilidi. Muqaddas kitoblar saqlangan sandiqlar otlar uchun oxur xizmatini o'taydigan bo'ldi. Ilm yulduzlari bo'lmush mullolar, shayxlar qullar qatori nufuzli mo'g'ul xarbiylariga xizmatkor qilib berildi. Ko'pgina mo'tabar qozilar eshak va xachir boqishga majbur qilindi. Musulmon dunyosining markazlaridan biri bo'lgan

---

<sup>2</sup>Xayrullayev M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. – T.: 1996, 12-bet.



Buxoro bosqinchi mo'g'ullarning dastlabki hamlasidan so'ng ko'p dahshatlarni boshdan kechirdi.

Madaniyat va san'atning barcha turlari istilochilik davrida katta zarbaga uchradi. Yakson etilgan obidalar, madaniy inshootlar, talab ketilgan zargarlik buyumlari, yo'q qilingan yozma madaniyatimiz – bularning barisi xalqimiz ma'naviy hayotining keyingi bosqichlarida o'zining ayanchli ta'sirini ko'rsatdi. “O'zlarining san'atlari, ilm-ma'rifatlari, nozik tabiatlari va axloqlari bilan dong taratgan Movarounnahr aholisi baxtsizlikka uchrab, masxara etildi. Buyuk bir el shamolday tarqab ketdi”<sup>3</sup>. Xususan, qochoq buxoroliklardan biri Xurosonga kelib, o'z vatanining ahvoli haqida quyidagi baytni aytgan edi: “Omadandu kundandu suxtandu kushtandu burdandu raftand (keldilari yemurdilaru, yondirdilaru o'ldirdilaru, taladilaru ketdilar)”<sup>4</sup>.

Markaziy Osiyo Amir Temur hokimiyati ostida birlashtirilib, mo'g'ul istilochilari o'lkadan haydab chiqarilganidan so'ng, XIV asrning o'rtalaridan e'tiboran bu yerda madaniyat yanada yuksala boshladi. Amir Temur olimlar, san'atkorlar, ilm fidoiylarini o'ziga yaqin tutardi. U ulamo va fozillarga izzat-ikrom ko'rsatib, ularni har qanday kishilardan ko'ra muqaddas bilardi. Ulardan har birini o'z martabasiga qo'yib, hammalariga hurmat – e'tiborini izhor etar, muruvvati bisotini keng ochardi.

Umir Temurning Movarounnahrda kutubxonachilik ishini rivojlantirishga, dunyodagi eng yaxshi, qimmatli qo'lyozmalarni mamlakat kutubxonalarida saqlash yo'lida say-harakatlari, ayniqsa diqqatga sazovordir. Xususan, uning shaxsan o'zi Samarqandda kutubxona tashkil qilish ishiga bosh-qosh bo'ldi. Qo'lyozmalarni ko'chirish va kitob tayyorlash ustaxonalarida milliy kitob san'atining eng yaxshi ustalarini to'plagan.

Temuriy shaxzodalardan Shahruh, Boysunqur va Husayn Bayqarolarning kutubxonalari ham noyob va rang – barang adabiy-badiiy, ilmiy kitoblarga boyligi jihatidan Temurning samarqanddagi sulolaviy kutubxonasidan qolishmas edi.

---

<sup>3</sup> Alimova D.A. Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari. – T.: Sharq, 2000. 317-bet.

<sup>4</sup>Herman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – T.: 1990. 23-24-betlar.

Birgina Ulug‘bek rasadxonasi qoshida boy kutubxona tashkil etilib, unda fanning deyarli barcha sohalariga tegishli qariyb 15 ming kitob saqlangan<sup>5</sup>. “Ammo afsuski, Ulug‘bekning o‘ldirilishidan so‘ng Temuriylarning sulolaviy kutubxonasi o‘zaro feodal urushlar natijasida asta-sekin talon-taroj qilindi va bunyo bo‘ylab” sochilib ketdi.

O‘zbekistonning Temuriylardan keyingi tarixi ancha tahlikali kechdi, o‘lka ijtimoiy-siyosiy vaziyatidagi beqarorlik, iqtisodiy turmushdagi nochorlik bu yerda yashaan xalqlar hayotining belgilovchi xususiyatiga aylandi. XV asr oxiri - XVI asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida bir necha mustaqil davlatlar tuzilmalari paydo bo‘ldi. Bundan ilgari vujudga kelgan xo‘jalik muxanizmi ishdan chiqib, o‘zaro iqtisodiy aloqalar buzila boladi. Bu davrda davom etgan o‘zaro urushlar, hokimlar o‘rtasidagi dushmanlikning avj olishi O‘zbekiston hududida madaniyat va ilm – fanning rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Uyg‘onish davrida rivojlangan buyuk an‘analar zanjiri uzilib qoldi. Bu borada vujudga kelgan sun‘iy to‘siqlar esa Uyg‘onish davri ma‘naviy – ilmiy mulkining ijtimoiy kuchini, yuksak darajada rivoj topgan ma‘naviy-ma‘rifiy, mafkuraviy taraqqiyotning jamiyat a‘zolari tomonidan o‘zlashtirilishini susaytirdi.

Biroq, shuni aldohida qayd etish lozimki, bunday qiyinchiliklarga qaramasdan, o‘zbek milliy madaniyati rivoj topdi, uning yangidan-yangi yo‘nalishlari paydo bo‘la boshladi, o‘zbek tilida yaratilgan asarlar ko‘paya bordi. Zahridin Muhammad Bobur, Abdulla ibn Muhammad ibn Ali Nasrullohiy, Turdi, Abulg‘ozixon, Mushfiqiy, Sayido Nasafiy kabi adib va shoirlar, Ibn Bobo Samarqandiy, Muhammad Amir al-Munajjim al-Buxoriy, Abu Yoqub ibn nasr Donish Buxoriy kabi munajjimlarning faoliyat ko‘rsatganligi O‘zbekiston hududida ilm-fan va madaniyat taraqqiy etganligidan dalolat beradi<sup>6</sup>. Bundan tashqari, Markaziy Osiyodagi xonliklarda nodir qo‘lyozmalar, miniatyuralar kolleksiyalarini to‘plash, saroy va shaxsiy kutubxonalar barpo etish azaliy an‘ana bo‘lib kelganligi ma‘lum. Chunki, Shayboniyxonning o‘zi ham she‘riyat bilan

---

<sup>5</sup>Muhammadjonova A. Temur va Temuriylar saltanati. – T.: 1994. 118-bet.

<sup>6</sup>Hamidov X. O‘zbek an‘naviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi. – T.:, 1996. 78-bet.

qiziqqan va katta saroy kutubxonasini tashkil etgan. Uning merosxo'ri Ubaydullaxon (1533-1539) katta shoir bo'lib, bu kutubxonani yanada boyitgan<sup>7</sup>.

Nodir qo'lyozmalarni to'plab, kutubxonalar boyligini yanada oshirishda XVII asrda yashagan Buxoro xonlari – Ashtarxoniylar sulolasidan Abdulazizxon (1645-1680) va uning ukasi Subhonqulixon (xonlik davri 1690-1702) muhim ishlar qilishdi. Mazkur davrda tibbiyot, kimyo va boshqa fanlarga oid ko'plab qo'lyozmalar to'plangan<sup>8</sup>. Ayni paytda, Buxoro, Samarqand, Qarshi kabi shaharlarda ham kutubxonalar tashkil etilgan.

Bu borada Xiva xonligida olib borilgan ishlar ham diqqatga sazovor edi. Jumladan, Xiva xoni Abulg'ozii (1603-1664) davrida juda ko'plab ijtimoiy-siyosiy tarixga, ma'naviy merosimizga daxldor fo'lyozmalar yig'ilgan bo'lib, ajoyib kitoblar kolleksiyasi to'plangan edi<sup>9</sup>.

Xiva xoni Olloqulixon (vafoti 1843) juda katta va boy saroy kutubxonasiga ega bo'lib, 1843 yili uni o'zi qurdirgan Xivadagi madrasaga hadya etadi. Muhammad Rahimxon II (Feruz) (xonlik davri 1865-1910) davrida ham Xivada juda mashhur kutubxona tashkil etiladi. Kutubxonani u dunyoning turli burchaklaridan keltirilgan nodir qo'lyozmalar bilan muttasil boyitib boradi. O'rta Osiyoda birinchi marta Xivada lotografiya tashkil qilib, noshirlik ishlarini yo'lga qo'yadi. Bu hol ma'naiy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirishda, o'lka milliy-madaniy merosini boyitishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shu o'rinda, Muhammad Rahimxonning o'zi ham shoir va bastakor bo'lib, she'rlarni "Feruz" taxallusi bilan nashr ettirgani, shular qatorida zamondosh adibi olimlar asarlarini ham chop qildirganini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Unnig Xorazm shoirlari asarlaridan tuzilgan "Majmuat ushshuaro" tazkirasi juda mashhur edi.

---

<sup>7</sup> Alimova D.A. Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari. – T.: Sharq, 2000. 319-bet.

<sup>8</sup> Semenova A.A. Sredneaziatskiye kukopisniye fondi i vajnost ix izucheniY. Quyiidagi kitobda: "Materiali I soyuznoy konferensii vostokovedov v Tashkente". – M.: 1957, s-21. Quyiidagi kitobda: Alimova D.A. Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari. – T.: Sharq, 2000. 319-bet.

<sup>9</sup> Abul-Gazi-Bagadur-xan. Rodoslovnoye drevo tyukov. – Moskva – Tashkent – Bishkek. 1996.

Xivaga kelgan sharqshunos olim A.N.Samoylovich xon kutubxonasini ko‘rishga muyassar bo‘lgan. Rus olimida kutubxonaning boyligi va undagi kitoblarning muayyan tartib va tabaqalar bilan saqlanishi juda katta taassurot qoldirdi. A.N.Samoylovich o‘zining “Xiva saroy kutubxonasi va kitob chop etish” nomli asarida bu kutubxonaga katta baho beradi<sup>10</sup>.

Xiva xonligi o‘zining boy madaniy merosi bilan hamisha o‘zga yurt istilochilarini o‘ziga rom qilib kelgan. Ular ichida ayniqsa kitob xazinalari o‘ziga xos o‘rin egallagan. Bu kutubxonalarda nafaqat O‘rta Osiyoda yozilgan, ayni paytda xorijiy mamlakatlarda nashr etilgan ko‘plab kitoblar saqlanar edi. Bu yerda arab va fors tillaridan o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlar ham mo‘l bo‘lib, shohning o‘zi saroyga shoir va olimlarni to‘plab, kutubxonani muttasil boyitib borgan. Kutubxona qoshida xattotlar va musavvirlardan iborat katta guruh faoliyat ko‘rsatgan.

Markaziy Osiyo ma’naviy amdaniyatida Qo‘qon xonligi alohida o‘ringa ega bo‘lgan. Qo‘qon adabiy-badiiy muhiti juda rivoj topgan bo‘lib, u o‘zbek milliy madaniyatining qiyofasini o‘zida aks ettirar edi. Xususan, Farg‘ona, Qo‘qon, Toshkentda kitob ixlosmandlari ko‘p bo‘lib, ular juda katta mablag‘ sarflab, butun umr nodir qo‘lyozmalar yiqqanlar. Masalan, Toshkentda Jo‘rabekning shaxsiy qo‘lyozmalar kolleksiyasi juda mashhur di (Jo‘rabek 1906 yilda o‘ldirilgan).

Yirik boylar, qozi kalonlarning qo‘lida ham shaxsiy qo‘lyozmalar kolleksiyasi mavjud edi. Ayniqsa, Andijondagi Dukshi Eshon shaxsiy kutubxonasi, Buxoroda yashagan Sharifjon Mahmud (Sadr Ziyo)ning kutubxonasi va undagi qo‘lyozmalar o‘zining nodirligi va qadimiyligi bilan mashhur bo‘lgan.

Keltirilgan fakt va raqamlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, O‘zbekistondagi moddiy va ma’naviy boyliklarning haddi hisobi yo‘q edi. Ayni paytda bu yerda kitob, qo‘lyozmalarni to‘plash hamda ularni ma’naviy-milliy boylik sifatida saqlab, kelajak avlodga yetkazib berish an’ana va odatga aylangan.

---

<sup>10</sup>Samoylovich A.N. O Xivinskoy pridvornoy biblioteke i knigopechataniY. // Turkestanskiye vedomosti. 1880. № 24. . Quyidagi kitobda: Alimova D.A. Mustabid tuzumning O‘zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari. – T.: Sharq, 2000. 320-bet.

Milliy davlatchilik tarixini o'rganish shundan dalolat beradiki, o'lkamizning ko'pgina hukmdorlari har doim ham ilm-ma'rifat, madaniyat va san'at, ilm-fanning u yoki bu turi bilan muntazam va jiddiy shug'ullanganliklari, ayrim holarda esa qomusiy bilim egalari ekanliklari bilan o'zgalardan ajralib turganlar. Shuning uchun bo'lsa kerak, barpo etilgan saroy kutubxonalari boy va betakror qo'lyozmalar xazinasiga aylanagn. Masalan, dunyoga mashhur Amir Temur va Mirzo Ulug'bek, Temuriylardan Boysunqur Mirzo, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzo, Shayboniylardan shoir Ubuydullaxon, Ashtarxoniylardan olim Subxonqulixon, Xiva xonlaridan tarixchi olim Abulg'ozi, shoir Muhammad Rahimxon II (Feruz), Qo'qon xonlaridan Umarxon va uning rafiqasi, taniqli shoir Nodirabegim va boshqalar boy kutubxonalar tashkil etibgina qolmay, balki o'zlarining o'lmas asarlari bilan dunyo madaniyatini ham boyitganlar.

Shunday qilib, o'zbek xalqi uzoq tarixiy jarayonlar silsilasida boy ma'naviy boylik yaratdi, jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shdi.

Istilochilar hamisha xalqning ana shu bebaho ma'naviy boyligidan qo'rqanlar, zero bunday muqaddas boylik milliy o'zlikning rivojlanishiga ko'mak beruvchi, millatning g'ururini uyg'otuvchi, uning ko'ksini ko'taruvchi omil ekanligini yaxshi tushunganlar. Shuning uchun ham mustamlakachilikning ilk davrlaridanoq bosib olingan xalq milliy madaniyatini yo'q qilishni o'zlarining bosqinchilik siyosatidagi ustiqor yo'nalish deb bildilar. Rus bosqinchiligi davrida esa bu narsa ayniqsa kuchli tarzda namoyon bo'ldi.

O'rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan zabt etilganidan keyin ajnabiy siyosatdonlar asosiy e'tiborini o'lka moddiy boyliklarini tashib ketishga va milliy-madaniy boyliklarni yo'q qilishga, shu asnoda millatning milliy g'ururini so'ndirishga harakat qildilar.

D.A.Alimova bunga quyidagicha fikr bildiradi: "Bunday tarixni yaratish tarix yuzidagi sirli pardalardan birini olib tashlaydi va bu fanning muayyan sohasiga asos soladi, tarixga xolisona baho berish uslubiyotiga katta hissa bo'lib qo'shiladi. Bu hol, shak-shubhasiz, madaniyatimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiladi, shu sababli ham bu muhim holatlarni chuqur bilish madaniyat arboblari uchun

ham, qolaversa, yoshlar va butun xalqimiz uchun ham nihoyatda zarurdir. Tarixchilarimiz tomonidan amalga oshiriladigan ishlar yo‘qotishlarning “Oq sahifalari”ni to‘ldirish va tashib ketilgan madaniyatimiz xazinasining hech bo‘lmaganda bir qismini qaytarib olish ishini boshlashga yordam beradi. Albatta bu ishni amalga oshirish oson kechmaydi, lekin vatanimiz madaniyatini qadrllovchi hamma kishilar bir joyga to‘planishlari va bu haqda bosh qotirishlari kerak.”

## **1.2. Hozirgi davr o‘zbek milliy madaniyati holati va istiqbollari**

Eng avvalo, mamlakat hukumati, Prezidentning ma’naviy-ma’rifiy omillarga nisbatan munosabati shakllandi. Jumaldan, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosaimning asosiy ustuvor yo‘nalishi, deb belgilandi. Joylarda ma’naviyat bilan bog‘liq tadbirlarning amalga oshirilishi uchun butun mas’uliyatning hokimlar, vazirliklar, idoralar, tashkilotlarning birinchi rahabarlari zimmasiga yuklatilishi juda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, ma’naviyati yuksak millat va davlatningina kelajagi buyuk bo‘lishi mumkin ekanligi to‘g‘risidagi ijtimoiy fikr shakllana boshladi. Darhaqiqat, iqtisodiy-siyosiy omillarning jamiyatda sodir bo‘lgan barcha muammolarni hal etishga qodir omil ekanligi endi haqiqatdir.

Uchinchidan, ma’naviyat va ma’rifat jamiyatni sog‘lomlashtiruvchi kuch ekanligi e’tirof etilmoqda, zero, sobiq sovet mustabid tuzumi davridan qolgan yaramas “ma’naviy” merosdan halos bo‘lmay turib istiqloлга hizmat qiladigan, fuqarolar qalbi va ongini yangilashga qodir ma’naviyatni shakllantirish mumkin emas.

To‘rtinchidan, mustaqillik davri O‘zbekiston jamiyati ma’naviyatining eng muqaddas maqsadlardan biri – o‘tmish tarixiy-madaniy, ilmiy, axloqiy-mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga sovetlar davrida tarkib topgan munosabat kabi “illat” sifatida emas, aksincha, jamiyatni mustahkamlovchi omil deb qarashdan iborat jamoatchilik fikri shakllandi.

Beshinchidan, mustaqillik davrida ma’naviyatning har qanday siyosiy hukmron mafkuralardan holiligi, muhimi, shakllanayotgan milliy mafkuraning ma’naviyat bilan uyg‘unligi ta’minlandi. Mamlakat Prezidenti I. A. Karimov qayd etganidek, mustaqillik davrida bajarilishi lozim bo‘lgan eng ustuvor vazifa “xalqimiz orasida katta ma’rifiy-amaliy ishlarni olib borib, milliy mafkuramizga kuch-quvvat beradigan, uni yangi-yangi marralar sari olib boradigan, keng

ommmga ta'sir o'tkazishga, xalqni o'ziga tarafdor etishga xizmat qiladigan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy manbalarni to'g'ri belgilab olishdir"<sup>11</sup>.

Haqiqatan ham, mustaqillik yillarida ma'naviyat va ma'rifatning ijtimoiy maqsadi aniqlab olindi. Uning bajarilishi lozim bo'lgan vazifalari belgilandi. Ana shunday sharoitda jamiyat fuqarolari tomonidan bildirilgan ijtimoiy ehtiyoj – ma'naviy-ma'rifiy sohalarda yangi asr va umuman, uchinchi mingyillikdagi bosh g'oya qanday bo'lishi aniqlandi.

“Madomiki, biz xuquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurayotgan ekanmiz, ma'naviyat sohasidagi yigirma birinchi asrga mo'ljallangan harakat dasturimiz ham ana shundan kelib chiqmog'i darkor. YA'ni erkin fuqaro – ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs ma'naviyatini kamol toptirish bizning bosh milliy g'oyamiz bo'lishi zarur”<sup>12</sup>.

Darhaqiqat, mustaqil O'zbekistonda madaniyat va ma'naviyat sohasida mavjud bo'lgan vazifalar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik sharoitida muttasil ravishda bajarilib kelinmoqda. Chunonchi, istiqlolning dastlabki yillarida jamiyat ma'naviy hayotida turgan eng bosh vazifa fuqarolarda sovet davriga xos tafakkurni, eskicha fikrlash sarqitlarini bartaraf etish edi. Mazkur masalada qator yutuqlarga erishildi. Biroq, bu borada hali talay ishlarni bajarish lozim.

Mustaqillik yillaridagi O'zbekiston madaniyati xususida fikr yuritganda alohida qayd etilishi lozim bo'lgan masalalardan yana biri – ma'naviyat sohasidagi siyosatning tobora konkretlashib borishi, vazifalarni hal etish yo'llarining oydinlashuvidir. Ma'naviyat jamiyat a'zolarini ruhan poklantiruvchi, ma'nan yuksaltiruvchi, inson ichki dunyosiga, irodasiga kuch-quvvat beruvchi, milliy vijdonini uyg'tuvchi va doimiy harakatdagi konkret kuchdir. Shunday ekan, ma'naviyatga umumiy tarzda munosabatda bo'lish xatodir. Zero, har bir fuqaroning ma'naviy-mafkuraviy komillik darajasi bir hil bo'lmagani kabi, ularning bunday sifatlarini uyg'unlashtirib turuvchi ko'rinishlari ham konkretidir.

---

<sup>11</sup>Karimov I. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – B. 16.

<sup>12</sup>Karimov I. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – B. 18.



Prezident I.A. Karimov ta'kidlashicha, ma'naviyat sohasidagi strategik maqsadimiz – “ milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rni va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlangan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir”<sup>13</sup>.

Darhaqiqat, istiqlolning hozirgi bosqichida ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarni tashkil etishda endi ularning samaradorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Madaniyat va ma'naviyat sohasidagi ishlarning samaradorligini oshirish uchun qurilayotgan demokratik, huquqiy, insonparvar jamiyat yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga tayanish, bu jarayon esa milliy g'oya va milliy mafkuraga, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanishini alohida qayd etish zarur.

Agar istiqlolning dastlabki yillarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan ko'zlangan maqsad sobiq sovet mustabid tuzumi asoratlaridan qutilish, jamiyatda ma'naviy yakdillikni yaratishdan iborat bo'lgan bo'lsa, endi ijtimoiy omillar hamda millatlararo munosabatlar masalasiga qarash ham tubdan o'zgardi. Chunonchi, istiqlolning dastlabki davrlarida “soxta baynalmilallik” oldida yurak oldirib qo'ygan hamda hadiksirash kasalidan holi bo'lmagan holda, har qanday milliylikni ulug'lash va har qanday “bayanmillallik”dan qochish hissiyoti yuzaga kelgan edi. Bunday biryoqlamalik, tabiiyki, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga, ayniqsa, millatlararo munosabatlar masalasiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin edi.

Shuning uchun ham O'zbekiston hukumati madaniyatdagi milliylik va baynalmilallik nisbatini saqlashga muhim vazifa sifatida munosabatda bo'la boshladi. Ayni paytda 130 ga yaqin millat va elat yashayotgan O'zbekistonda har bir millat ravnaqi, uning barqaror taraqqiyoti, havfsizligi va yashash kafolatlariga har qanday tahdidlarni oldini olish, u yoki bu millatga mansub kishilar guruhining

---

<sup>13</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – Toshkent.: O'zbekiston, 2000. – B. 24.

hudbinlik kayfiyatlarini chegaralab qo'yadigan davlat siyosatining ishlab chiqilishi bu boradagi amaliy ishlarning samarasini oshiradi.

O'zbekistonda istiqomat qilayotgan ko'p millatli xalqlarning madaniy taraqqiyoti, ularning o'zliklarining anglash jarayonlariga bo'lgan intilishlarini qonuniy-xuquqiy asosda qondirish masalalari ham mamlakat hukumati oldidagi eng muhim vazifalaridan biri bo'ldi. Shu o'rinda, 1989 yili O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi huzuridagi respublika millatlararo madaniy markazning tashkil etilishini alohida ta'kidlash lozim. Agar 90-yillarning boshlarida O'zbekistonda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1995 yilga kelib ularning soni 80 dan ortdi<sup>14</sup>. Mustaqillik yillarida milliy-madaniy markazlar faoliyati ustidan muvofiqlashtiruvchi ishlarning ko'lami ham ortdi va 1992 yil yanvar oyida hukumat qarori bilan Respublika Baynalmilal madaniy markazi tashkil etildi. 2011 yilga kelib O'zbekistonda 136 ta millat, elat xalq va etnik guruhlar yashamoqda. Ularning har biri o'z milliy-madaniy urf-odatlarini, an'analari, tiliga va konstitusiyaviy xuquqiy tenglikka ega bo'ldi va O'zbekistonda 2011 yilga kelib 100 dan ortiq milliy-madaniy markaz faoliyat ko'rsatmoqda va 9 tilda o'qish tashkil etilmoqda<sup>15</sup>.

Ushbu markazning bosh vazifasi qilib esa, milliy madaniy markazlarga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish, ular faoliyatini muvofiqlashtirish, milliy an'ana, urf-odatlarini qayta tiklash, MDH va horij davlatlardagi baynalmilal madaniy markazlar bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, O'zbekistonda millatlararo aloqalarni yaxshilash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash kabi muhim masalalar kiritildi.

Mustaqillik yillarida ma'naviy-ma'rifiy masalalarga jiddiy e'tibor hukumat tomonidan bu borada mukammal tarzda ishlab chiqilgandastur asosida ish olib borishni talab etdi. Shu asosda 1994 yil 23 aprelda mamlakatimiz ma'naviy hayotida muhim voqea yuz berdi. Prezident I.A. Karimov farmoni bilan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi tashkil etildi.

---

<sup>14</sup>O'zbekiston millatlararo hamjihatlik yo'lida. – Toshkent, 1996. – B. 3.

<sup>15</sup>Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. – Toshkent: 2011. – B. 74.

Ma'lumki, sobiq sovet Ittifoqi tugatilishi bilan birga, uning kommunistik mafkurasi ham barham topdi. Bu yakkahokim mafkuraning achchiq saboqlaridan xulosa chiqarib, mamlakatiizning Asosiy Qonunida: “hech qaysi mafkura davlat mafkurasi bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi”, – deb yozib qo‘yildi. Shu tariqa, jamiyatimiz hech qachon mafkura yakkahokimligi ro‘y bermasligi uchun zarur bo‘lgan huquqiy poydevor yaratildi. Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi ayni shu maqsadni ko‘zda tutib tashkil etildi<sup>16</sup>.

Qayd etish lozimki, Ma’naviyat va ma’rifat markazi qisqa davr ichida xalqimizning boy ma’naviy merosini o‘rganish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida mamlakat va millat kelajagini belgilaydigan ilg‘or g‘oyalarni yuzaga chiqarish bo‘yicha yirik ishlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga, ma’naviyat va ma’rifat masalalarini bevosita jamoatchilik yo‘li bilan rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi o‘z samarasini bermoqda. Ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni yanada rivojlantirish maqsadida 1996 yil 9 sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: “ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi farmoni jamiyatni ma’naviy barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi<sup>17</sup>. Unda mazkur masalada jiddiy ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda ayrim hollarda ma’naviyat mohiyatini uning olg‘a siljishini, farovon, tezkor hayotimizdagi qimmatini chuqur idrok etmaslik ko‘rinishlari mavjudligi, bu ishga dahldor rahbarlarda mas’ullik past ekanligiga e’tibor qaratildi.

Farmonga asosan 1997 yildan boshlab 1 oktabr “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” deb e’lon qilindi. “Ma’naviyat” nnashriyoti tashkil etildi. “ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi qoida “Oltin meros” xalqaro hayriya jamg‘armasi ta’sis etildi.

Bu boradagi ishlarni tartibga keltirish, faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov 1999 yil 3 sentabrda “Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab quvvatlash to‘g‘risida”gi

---

<sup>16</sup>Jo‘rayev N. Agar ogoh sen... – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 148.

<sup>17</sup>Guliston jurnali. 1997 yil, 1-son, – B. 4.

farmoniga imzo chekdi. Ushbu farmon ma'naviyat va ma'rifat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligi to'g'risidagi g'oyani yanada mustahkamladi va unga yanada kuch berdi.

Hukumat tomonidan ko'rilgan tadbirlar samarasi natijasida ma'naviyat ma'rifat jamiyatda ruhiy poklanishga, shaxs ulug'vorligini oshirishga, demokratik, huquqiy, insonparvar davlat qurishga mustahkam poydevor yaratadi.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston hukumati milliy madaniyatini rivojlantirish, ayniqsa, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga katta e'tibor berdi. Ma'lumki, mamlakatimiz jahon sivilizatsiyasining muhim o'choqlaridan biri sifatida ko'plab tarixiy-madaniy, me'moriy yodgorliklarga juda boy. Biroq sobiq sovetlar davrida ularni saqlash, ularni kelgusi avlodga butunligicha yetkazish imkonini berdi. Agar sobiq sovetlar davrida 6700 dan ortiq madaniyat va tarix yodgorliklarini ta'mirlash, tiklash ishlariga 1989 yilda 10,2 mln so'mlik, 1990 yilda 12,4 mln so'mlik mablag' ajratilgan bo'lsa, mustaqillikning dastlabki yilida – 1992 yilda respublika byudjetidan bu maqsadda ajratilgan mablag'lar 65,4 mln so'mni tashkil etdi. Jumladan, 1991-1997 yillar davomida Samarqand madaniyat va tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash ustaxonasi tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 20 barobar, Shaxrisabz ustaxonasining bajarilgan ishlar hajmi 23 martaga oshdi.

1997 yilda Buxoroda 366 mln. so'm, Xivada 185 mln. so'm hajmidagi, Amir Temur nomi bilan bog'liq qadamjolarini tamirlash ishlarining ikkinchi bosqichi bo'yicha 250 mln. so'm hajmidagi ishlarni amalga oshirish rejalashtirildi. Agar 1999 yilda ushbu maqsadlar uchun 700 mln. so'm ajratilgan bo'lsa, bu raqam 2000 yilda 750 mln. so'mga yetdi<sup>18</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 28 oktabrdagi "O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risi"da qabul qilingan qarori mamlakatimiz ma'naviy madaniyati rivojida katta ahamiyatga molik bo'ldi. Uning natijasida 5000 dan ortiq madaniyat va san'at hodimlarining yashash sharoitini yaxshilash imkoni tug'ildi. Barcha teatr va musiqa muassasalari ijodiy hodimlarining o'rtacha ish haqi 30-35% ga oshirildi.

---

<sup>18</sup>O'zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligining joriy arxivi

1991—1995 yillar davomida 22 kishi “O‘zbekiston xalq artisti”, bir kishi “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi”, 3 kishi “O‘zbekiston xalq hofizi”, 9 kishi “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi”, 75 kishi “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artisti”, 37 kishi “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat hodimi”, 32 kishi “O‘zbekiston Respublikasining Fahriy yorliqlari” bilan taqdirlandi<sup>19</sup>.

Insoniyat tarixida o‘z ijtimoiy ahamiyati jihatidan alohida e‘tiborga loyiq holatlar, qadriyatlar mavjudki, bular u yoki bu millat, elat, xalqning mavjudligi belgisi, taraqqiyoti, mezoni hisoblanishi mumkin. Millat mavjudligining ana shunday muhim belgilaridan biri ta‘lim tizimi hamda yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasidir.

Darhaqiqat, ta‘lim tizimi demokratik tamoyillar bilan uyg‘unlashgan, uning insonparvar jamiyat barpo etish kabi ijtimoiy ehtiyoj talablariga javob bergandagina u buyuk maqsad – barkamol avlodni tarbiyalash va shakllantirish vazifasini ado etish mumkin.

Kommunistik “nazariya” tomonidan ta‘lim tizimiga qo‘yilgan asosiy maqsad – jamiyat a‘zolarini mafkuraviy qullikka, itoatkorlikka majbur qilishdan boshqa narsa emas edi. Mafkuraviy biqqlik, erkin fikr yuritilishiga yo‘l qo‘ymaslik, demokratik tamoyillarga bepisandlik bilan munosabatda bo‘lish kabi illatlar kishilarda ijtimoiy passivlik holatini yuzaga keltirdi.

Bular O‘zbekiston mustaqilligining dastlabiki davridanoq barcha sohalarida bo‘lgani kabi ta‘lim tizimida ham chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirishga, tub islohotlarni o‘tkazishga undadi. Istiqlol mamlakat fuqarolarida erkin fikrlashga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojini uyg‘otdi.

Mafkuraviy qullikdan holi ravishda, mamlakat va xalq manfaatlariga mos tarzda faoliyat ko‘rsatishga intilish hissiyotini bemalol, erkin ro‘yobga chiqishi O‘zbekiston fuqarolari dunyoqarashida chngilikka tashnalik kayfiyatini paydo qildi. Bu masala, ayniqsa, yangi tayyorlanishi, shakllanishi lozim bo‘lgan mutaxassis kadrlarga nisbatan munosabatni o‘zgartirdi. Istiqlolning dastlabki

---

<sup>19</sup>O‘zR MDA. M-7-f., 1-ro‘yxat, 503-ish, 76-varaq

davrdanoq mamlakat hukumati mavjud ta'lim tizimida tub isloxlarni o'tkazishga alohida ahamiyat berishga kirishish lozimligini anglab yetdi. Mamlakat Prezidenti ta'kidlaganidek, "oldimizga qo'yilgan eng ezgu maqsadimiz bilan uzviy bog'langan bugungi kundagi yana bir g'oyatda dolzarb masala – Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish bu borada boshlangan ishlarimizni davom ettirish va kuchaytirish bundan buyon ham biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi"<sup>20</sup>.

O'zbek milliy madaniyati sobiq sovet mustabid tuzumida haddan ortiq darajada ko'p zarar ko'rdi. Barcha mustamlakachilar kabi kommunistik mafkura maddohlari ham o'zbek xalqini qul qilish uchun, eng avvalo shu xalqning milliy madaniyatini yo'q qilishga zo'r berdilar.

O'zbek xalqi katta yo'qotishlarga qaramasdan, o'zligini, o'z milliy madaniyatini saqlab qola bildi. Bunga uzoq va yaqin tarix guvoh. Endigina vazifa ma'naviy hayotdagi barcha yo'qotishlarning o'rnini qoplashdan iborat bo'ldi. O'zbek xalqi ana shu yo'ldan bordi, o'z milliy tarixiy, madaniy merosiga sodiqligini ko'rsata bildi. Bu esa mustamlakachiliklar davrida yo'qotilgan, toptalgan madaniy merosni tiklash, o'zligini anglashga bo'lgan rag'batni uyg'otdi.

Istiqlol yillarida o'zbek milliy madaniy hayoti uyg'ondi, jonlandi va o'zining butun bo'yi-bastini ko'rsata oldi. Teatr, musiqa san'ati rivoj topdi. Madaniy aloqalar kengaydi, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati takomillashdi, muzeylarning ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyati oshdi, milliy adabiyot ravnaq topdi.

Hozirgi sharoitda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan 37 ta dramatik, musiqali drama va komediya, opera va balet, qo'g'irchoq teatrlari ana shunday vazifalarni bajardilar. 1998 yil 26 martda O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning "O'zbekiston teatri san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. Unga binoan tomosha san'atining ko'p asrlik an'analarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy negizini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy isloxlarni amalga

---

<sup>20</sup>Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – B. 27.

o'shirishda teatr arboblarning faol ishtirokini ta'minlash, badiiy-zamonaviy sahnabop asarlar yaratish maqsadida Madaniyat vazirligi tizimida va teatr ijodiy hodimlari uyushmasi qoshida "O'zbekteatr" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

Teatr san'atini rivojlantirish yo'lida 1998 yil noyabr oyida o'tkazilgan "Xumo" xalqaro yoshlar teatrining festivallari alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu festivalda O'zbekiston va Isroil davlatlarining eng yaxshi teatr jamoalari ishtirok etdilar. Mazkur festival doirasida 32 ta spektakl namoyish etildi, ularni 20 mingdan ortiq tomoshabin tomosha qildi.

Mustaqillik yillarida "Navro'z", "Xumo" xalqaro yoshlar teatrining festivallarini o'tkazish an'anaga aylandi. Jumladan, an'anaviy "Navro'z-99" Respublika teatr san'ati festivali, qatag'on qilinganlar xotirasiga bag'ishlangan "Andijon bahori-99" teatr san'ati festivali, "Humo-98" va "Humo-2000" yoshlar teatrlari festivali, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, "Kamolot" yoshlar jamg'armasi bilan hamkorlikda 1999-2000 yillarda bo'lib o'tgan "Nihol" talaba yoshlar teatr studiyasining festivallari respublika madaniy hayotida katta voqea bo'ldi.

Umuman, so'nggi vaqtlarda respublika teatrlari har yili 130 dan ortiq mavzu va janrlarda spektakllar sahnalashtirdi. Hamza nomidagi teatrida "Piri koinot", Farg'ona viloyati Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi musiqali drama teatrida "Imom al-Buxoriy", Andijon viloyati Yo'ldosh Oxunboboyev nomidagi musiqali drama teatrida "Alpomishning qaytishi", Horazm viloyati Ogahiy nomidagi musiqali drama teatrida "Jaloliddin Manguberdi" kabi asarlarning sahnalashtirilishi o'zbek milliy sahna san'atining rivojlanishiga ma'lum hissa bo'lib qo'shildi<sup>21</sup>.

Mustaqillik yillarida, ayniqsa, so'nggi 10 yil ichida o'zbek teatri san'ati ancha rivoj topdi. "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi teatr san'atining yosh ijodkorlari debyuti tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratdi. "Debyut" ko'rik-festivalining har ikki-uch yilda o'tkazilishi an'anaga aylandi. 2012 yilda o'tkazilgan "Debyut" festivalida namoyish etilgan spektakllar

---

<sup>21</sup>O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlarining joriy arxivi.

ichida zamonamiz kishilari hayotidan hikoya qiluvchi asarlar e'tiborini tortdi. Ko'rik davomida namoyish qilingan 14 ta spektaklning 4 tasini zamon qahromoni obrazini yaratish borasida qilingan ishlar qatoriga qo'shish mumkin. Shulardan "Shirin nayrang" va "Jonim baxshida" spektakllari ayniqsa e'tiborli bo'ldi.

Mamlakatimizda bugungi kunda eng dolzarb masalalardan bo'lmish zamonaviy qahramon obrazlarini talqin qilish borasidagi amaliy ishlar sarasiga 2004 yili o'tkazilgan "37+1" zamonaviy mavzulardagi spektakllar festivali, 2011 yili o'tkazilgan "Seni kuylamiz, zamondosh!" nomli zamonaviy mavzularda sahnalashtirilgan spektakllarning 1-Respublika ko'rik-festivali qatori, "Debyut-2012" ko'rik-festivalini ham yaxshi namuna sifatida kiritish mumkin<sup>22</sup>.

Shuningdek, o'zbek va horijteatri namoyondalari o'rtasida mustahkam ijodiy aloqalar o'rnatish, ular bilan fikr va tajriba almashishda katta rol o'ynayotgan hamda o'tkazilishi an'anaga aylangan "Theatre.uz" xalqaro festivalini ham alohida ta'kidlash lozim. VII Art Week Style.uz san'at haftaligi doirasida O'zbekiston madaniyati va sana'ati forumi jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi hamkorligida O'zbekiston Yoshlari teatri tashabbusi bilan tashkil etilgan "Theatre.uz/2012" uchinchi xalqaro teatrlar festivali ham juda yuqori saviyada o'tkazildi.

Xullas, O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, ajdodlarimiz tomonidan ming yilliklar davomida yaratilgan milliy madaniyatimiz an'analarini qayta tiklash, saqlash va rivojlantirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi, oshirilmoqda. Ayniqsa, teatr, kino, televideniye, radio, amaliy va tasviriy san'at va boshqa sohalarida ham jiddiy ishlar qilindi.

---

<sup>22</sup>"Teatr" jurnali. 2012. № 4. – B. 6.



## **II bob. O'zbek xalqining urf odati va madaniy qadriyatlari**

### **2.1. Madaniy qadriyatlar va ularning ijtimoiy ahamiyati**

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari asosida manaviyat ishlari ustuvor sohaga va rahbarlarning bosh vazifasiga aylantirildi, vatanimizda xalqaro tadbirlar, ulug'vor ishlar amalga oshirila boshlandi. Respublikamizda ajdodlarimiz merosiga tayangan yangi milliy madaniyat maydonga chiqdi. Bu madaniyatningistiqboli, yo'llari oydinlasha bordi.

XXI asr - madaniyat asri bo'ladi, degan fikr madaniyatshunoslar qalbiga nur sohib, iliqlik olib keldi. XX asr oxirida madaniyat navbahori yaqinlashayotganiga ishonch hosil qildik.Xo'sh, nima uchun XXI asr aynan madaniyat asri bo'lmogi kerak? XXI asrni "Texnika asri", "Iqtisodiyot asri", "Kimyo asri", "Atom asri", "Elektronika asri", "Kompyuterlar asri", "Informasiya asri", "Kosmos asri" (o'zga koinotlarni o'zlashtirish asri), deyish ham mumkin-ku! Albatta, mumkin. Chunki bular XX asr taraqqiyotida muhim o'rin tutishi, tabiiy. Biroq insoniyat muhim hodisa - narsaga bosh masala sifatida qarab unga alohida e'tibor berishga intilinadi. XX asr saboqlari bizga shundan dalolat bermoqdaki, XXI asrda madaniyat inson uchun eng zarur hodisaga aylandi. "Nega", endi boshlangan asr aynan madaniyat asri bo'lishi kerak?" degan savolga quyidagicha javob berishga harakat qilamiz:

1. Madaniyatsiz jamiyat rivojlana olmaydi. Madaniyatning tarkibiy qismlari bo'lmish - ilm, fan, ma'rifat taraqqiyot negizidir.Yo'l, bino, zavodlarni qurish uchun, eng avvalo, yaratuvchilarga yuksak madaniy saviya, intellektual salohiyat, bilim, tarixiy tajriba, ilm-fan yutuqlari zarur bo'ladi.Savodsiz, uqimagan odam xech bir sohani rivojlantira olmaydi. Madaniy saviyasi past bo'lgan arxitektor hech qachon yaxshi loyiha yaratolmaydi, bilimsiz quruvchi, qulay va go'zal bino ko'ra olmaydi. Iqtisodiy taraqqiy etish uchun xam bilim, ilm-fan, tarbiya kerak bo'ladi.Demak, moddiy va iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun ulkan madaniy zamin kerak. Shuning uchun bo'lsa kerak "madaniyat nima?" deb so'ralganda, eng avvalo, madaniyat bu - insoniyatning rivojlanish darajasi deyiladi!

2. Madaniyat barcha sohalarda ravnaq topmasa - inson hayoti farovon bo'lmaydi. Madaniyat - bu faqatgina hayotning bir sohasi emas. U faqat ilmu fan, ma'rifat, din, adabiyot, san'at, ijod, ijobiy an'analar kabilar bilan cheklanib qolmaydi. Madaniyat inson hayotining barcha sohalarida namoyon bo'ladi va u barcha sohalarga zarur: siyosiy sohaga - siyosiy madaniyat, yuridik shaxslar va tartibni saqlash xodimlariga - huquqiy madaniyat, tabiatni saqlash uchun - ekologik madaniyat, ishlab chiqarishda ishlab chiqarish (mexnat madaniyati), qishloq. Xo'jaligida - agro madaniyat, aholining bo'sh vaqtini o'tqazishda - dam olish madaniyati, uy-ro'zgorda - turmush madaniyati, kundalik hayotda - kiyinish madaniyati, muomala madaniyati, so'zlashganda - nutq madaniyati, aholini sog'lomlashtirishda - jismoniy madaniyat va tabobatda - davolash madaniyati va hokazo madaniyatlar zarur. Barcha kasb a'zolari yuksak madaniyatli bo'lishga intiladi. Agar rahbarda - boshqaruv madaniyati, militsiya xodimida - axloqiy madaniyat, sotuvchida - muomala madaniyati, tibbiyot xodimida - davolash madaniyati, o'qituvchilarda ma'naviy madaniyat bo'lmasa, bu kasb egalari jamiyat taraqqiyotiga o'z xis-salarini qo'sha olmaydilar. Madaniyati bo'lmagan ishchining mahsuloti ham hech kimga kerak bo'lmay qoladi. Madaniyati bo'lmagan soha, ish, faoliyatning inson uchun foydasi kam. Inson hamma soha yordamida madaniyatli bo'lishga intiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, madaniyat atamasiga izoh berilganda: "Madaniyat - bu insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi" deyiladi. XXI asrda madaniyatdan, ya'ni insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklardan foydalanish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

3. Madaniyatsiz kelajakda - vahshiylik rivojlanadi. Agar, jamiyatda texnika, iqtisodiyot, kimyo, atom, elektronika, informatika rivoj topsa-yu, biroq, kishilar o'rtasida odob-axloq, e'tiqod, mehr-muruvvat, izzat-hurmat, qadr-qimmat kabi fazilatlar yuqolib borsa, bunday jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Moddiy, iqtisodiy rivojlangan jamiyat ko'rsagu, biroq, unda odamlar bir-birini aldasha, bir-birini tunasha, bir-biriga zo'ravonlik ishlatsa ota o'z bolalari bilan kelishmasa, aka-

ukalar bilan urishsa, mol, pul, amal talashib, odamlar bir-birlarini o'ldirishgacha borishsa, bunday jamiyatda yashash qiyin bo'ladi. Ma'naviyati puch arboblarning qo'lida fan va texnika ezgulikka xizmat qiladimi yoki yovuzlikkami? Ahloqsiz odamlar ilm-fan natijalaridan qanday foydalanishi mumkin? Iqtisod taqdiri hudbinlar qo'lga tushsa, u kimga xizmat qiladi? Informatika va kompyuter sistemasi yomonlar qo'lga tushsa-chi? Madaniyatsiz va ma'naviyatsiz jamiyatda aynan shunday bo'ladi. Shu sababli bizga eng avvalo ahloqiy Madaniyat lozim. Bular barcha soha taraqqiyotiga zamin, poydevor bo'lmog'pi darkor. Xo'sh, jamiyatdagi odamlar odobli, ahloqli, mehr-muruvvatli, farosatli, halol, adolatli bo'lmog'i uchun nima qilmoq kerak? Avvalo, kishilarda bu ahloqiy fazilatlarni, shakllantiruvchi madaniy - omillar - ilm, ma'rifat, adabiyot, san'at, din, mafkura kabilar taraqqiyotiga alohida e'tibor berib, ulardan samarali foydalanmoq zarur.

4. Madaniyat yetishmagan joyda tinchlik yo'qoladi, hayotdayovuzlikka qarshi ezgulik, yomonlikka qarshi yaxshilik, zulmatga qarshi ziyokorlik doimiy kurash olib borgan. "Jaholatga qarshi ma'rifat", degan edi Prezidentimiz. YUNESKONing Toshkentdagi sessiyasida ko'tarilgan asosiy g'oya - "Urushga qarshi madaniyat!" bo'ldi. Darhaqiqat, urush bo'lgan joyda qonlar to'kiladi, tinchlik yo'qoladi, dehqonchilik va ishlab chiqarish to'xtaydi. Urush bo'lgan joyda ochlik hukm suradi, odamlar ko'payishi o'rniga kamayadi, urush bo'lgan joyda bolalar o'qishni tashlaydilar, ma'rifat inqirozga, ilm-fan tanazzulga uchraydi. Xullas, jamiyat olg'a siljish o'rniga orqaga ketadi. Urush bo'lgan joyda madaniyat jonsizlanadi. Va, aksincha, madaniyat gullaganda, urushning urug'i quriydi. Urush tufayli gul vodiylar - cho'lga, shaharlar - harobaga, davlatlar - vayronaga, xalqlar bir-birining quliga aylanadi. "Bizning umumiy sivilizatsiyamizning ajralmas qismi bo'lgan bu ko'hna zamindagi tarixiy madaniy yodgorliklarga urush tufayli yetkazilgan zararni aniqlash qiyin" - degan edi Prezidentimiz Islom Karimov.

Madaniyat tufayli cho'llar - gulistonga, harobalar - bog'larga, vayronalar - shaharlarga aylandi. Madaniyatga intilgan yurtda hiyobonlar, saylgohlar, oyingohlar, tomoshagohlar, san'at saroylari, ziyoratgohlar, maktablar, madrasalar, kutubxonalar,

madaniyat markazlari paydo bo'ladi. Demak, urush bo'lmasligi uchun madaniyatni rivoj toptirmog'imiz kerak. Insoniyat endi madaniyat vositasi bilan urushning oldini olishga, tinchlikni saqlashga, xalqlar o'rtasida do'stlik aloqalarini mustahkamlashga intilishi darkor. Turli mamlakatlar bir-birini chegarasidan harbiy qurol bilan emas, o'z madaniyati, san'ati, ijodi bilan kirishga imkoniyatlar yaratilishi lozim. XXI asrda insoniyat o'tmish saboqlaridan to'g'ri xulosa chiqarib, yovuzlik o'rniga ezgulik g'oyalari, miltiq o'rniga foto, video apparaturalari, harbiy mashqlar o'rniga teatr tomoshalari, qon o'rniga rang tasvir jilolari, o'q ovozlari o'rniga musiqa ohanglari, jangchilar to'qnashuvlari o'rniga sport musobaqalari, pushka, artelleriya o'kdori o'rniga bayram mushakbozliklari osmonni charog'on etishiga erishmogi kerak. Dunyoni urush bilan emas, madaniyat bilan egallash lozim. Xalqlar bir-birining vataniga dushman sifatida emas, balki do'st sifatida, bosqinchi emas, balki mehmon sifatida, harbiy kiyimda emas, balki sayyoh libosida borishi lozim bo'lmokda. Xullas, madaniyat urushga qarshi asosiy vosita bo'lishi kerak. Madaniyat urush bo'lmasdan oldin, unga qarshi kurashishi lozim. Eng muhimi madaniyat urush g'oyasining tug'ilishiga yo'l qoymasligi zarur. Shuning uchun YUNESKO ijroiya komitasining Toshkentda o'tgan sessiyasida "2000 yil dunyoviy tinchlik yili" deb e'lon qilish tavsiya etildi.

5. Ma'naviy madaniyatsiz insoniyat o'zligini yuqotadi. Insoniyat qanchalik taraqqiy etsa, unga shunchalik yuqori darajadagi ma'naviyat kerak bo'ladi. Insonga moddiy madaniyatdan ham ko'proq ma'naviy madaniyat zarur. Insonda ma'naviyat borligi uchun u hayvonot dunyosidan ajralib turadi. Ma'naviyatsiz insonni hayvondan farqi qolmaydi. Inson o'z vujudiga quvvat beruvchi moddiy oziq bilan bir qatorda o'z ruhiga kuch beruvchi ma'naviy ozuqa ham olib turishi zarur. Ma'naviy ozuqani inson nafaqat tabiat go'zalligidan, balki o'z qo'li bilan yaratgan moddiy madaniyatdan ham oladi. Inson ma'naviy quvvatni adabiyot (ilmiy manbalar, she'riy va nasriy asarlar), san'at (musiqa, teatr, kino, rangtasvir, amaliy ijod kabilari), xalq ijodi, milliy marosim, bayram kabilardan oladi. Odamning qorni to'q bo'lsa-yu, ongi va qalbi "och" bo'lsa, u to'la ma'nodagi inson bo'la olmaydi. Agar miya oziqi - bilim, ilm,

fan bo'lsa, qalb oziqi - nafosat, san'at, adabiyot kabilardir. Insonda miya va qalb oziqlana boshlasa, u ma'naviy kamol topa boshlaydi. Ma'naviy ravnaq topmasdan madaniyatli bo'lish mumkin emas. Chunki, ma'naviyatsiz madaniyat yuk. Ularni bir-biri dan ajratib bo'lmaydi. Ma'naviyatsiz madaniyat - jonsiz tana. Ma'naviyat - madaniyatning mazmuni, ma'nosi. Madaniyat esa ma'naviyatning shakli, ko'rinishi. Madaniyatni xarakterga keltiradigan kuch - ma'naviyatdir. Ma'rifat esa ma'naviyatga olib boradigan yo'l, vositadir. Demak, madaniyatli jamiyat ko'raylik desak, eng avvalo, ma'rifat va ma'naviyatga diqqatimizni jalb qilmog'imiz lozim. Shu sababli Vatanimizda mustakillikka erishganimizdan so'ng, XXI asr bo'sag'asida ma'naviyat va ma'rifatga katta e'tibor berildi. Ikki asr o'rtasi - "2000 yil - xalqaro dunyoviy tinchlik yili" deb e'lon qilinishi insoniyatni XX asrdan XXI asrga o'tishi uchun "madaniy ko'rik" bo'ldi. Mustaqil O'zbekistonda bajarilayotgan tarixiy ishlar XXI asr madaniyati uchun munosib poydevor bo'la oldi. Endilikda bu mustahkam poydevor ustida baquvvat madaniyat binosi bunyod etilmoqda. Madaniyat insoniyatni urush dahshatlari, "rivojlangan yovuzlik", tubanlik, axloqsizlik, ma'naviy qashshoqlikdan qutqazib, ajdodlarimiz merosidan kengroq, foydalanish, jamiyatni ma'naviy sog'lomlashtirish, hayotimizning barcha sohalarini ravnaq ettirish, aholini ruhan, jismonan kamol toptirish, turmushni farovon qilish kabi ulug'vor ishlarga keng imkoniyatlar yaratishga ko'mak beradi. Shu sababli Prezidentimiz "kirib kelayotgan XXI asrda dunyoni madaniyat va ma'rifat qutqazadi" deb ta'kidlagan edi.

An'anaviy xalq madaniyatining mohiyati va xususiyati. Tarixiy ma'naviy qadriyatlarni tiklash millatni tiklash demakdir. Xalq ma'naviyati an'analarni tiklash bu boradagi muhim ishlardan biridir.

Chunki an'anaviy xalq madaniyati ajdodlarimiz merosini tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot tarixida muhim o'rin tutib kelgan va hozirgi davrda ham jamiyatni ma'naviy kamol toptirishda katta ahamiyatga ega. Respublika mustaqillikka erishgach, milliy meroslarni tadqiq qilishga keng yo'l ochilishi natijasida sho'rolar davrida ta'qiqlangan tarixiy meros, ma'naviy qadriyatlar, xalq madaniyati an'analari va ulardan foydalanish masalalariga doir qator izlanishlar

paydo bo'la boshladi. I. Jabborov, M.Imomnazarov, N. Komilov kabilar diqqatga sazovordir. Shuningdek, xalq turmushi, ijodi, san'atini o'rganishda folklorshunoslar, etnograflar va pedagoglar ham faollik ko'rsata boshlashdi. An'anaviy xalq madaniyati - etnoslarning tarixiy ma'naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelgan, ularning aqliy ijodiy faoliyati natijasida taraqqiy etgan ming yilliklar mobaynida ajdodlar fikrlari, tajribalari, orzu-istaklari, an'analari va qadriyatlarini o'zida birlashtirgan, avloddan-avlodga o'tib, asrlar osha sayqallanib, murakkablashib borgan bebaho meros hamda jamiyatimizni axloqiy sog'lomlashtiruvchi va insonparvarligini barqaror etuvchi xalqning ma'naviy kamol topishiga xizmat qiladigan muhim omil.

An'anaviy o'zbek xalq madaniyatiga yaxlit ijtimoiy ma'naviy xodisa, xalq turmushining tarkibiy qismi sifatida qarash madaniyatshunoslik fani dorasida "Etnomadaniyat konsepsiyasi"ni yaratishga yordam berdi. Bu konsepsiya xalq madaniyatini yaqinroq tushunishida imkoniyat yaratadi. "Etnomadaniyat" tushunchasi tarixiy jarayonda urug', elat, millat madaniyatini shakllanishi va rivojlanishini aks ettiradi. "An'anaviy xalq madaniyati" tushunchasi esa aynan antik madaniyatning tarixiy jarayonida shakllangan, sinalgan va an'anaga aylangan avlodan-avlodga meros bo'lib o'tayotgan muhim qismi sifatida namoyon bo'ladi. Agar etnomadaniyatning tarixiy-madaniy xususiyatlarini belgilaydigan bo'lsak, u quyidagilardan tashkil topishi mumkin:

a) etnos tabiiy a tarixiy ma'naviy ehtiyoj asosida vujudga keladi;

b) o'z mohiyati va xususiyati, mazmuni va shakliga ega bo'lib, boshqa hayotiy sohalar bilan chambarchas bog'lanib ketadi;

v) xalq hayotida o'z o'rnini topib, turmushning tarkbiy ajralmas qismiga aylanadi;

g) ma'naviy-tarixiy ehtiyoj sifatida avlodan-avlodga meros bo'lib o'tadi va davrlar osha taraqqiy etadi;

d) jamiyatning barkamol bo'lishiga xizmat qiladi;

Etnomadaniyatning asosiy ko'rinishlari (shakllari). An'anaviy xalq madaniyatini yaxlit va ko'p qirrali hodisa sifatida o'rganish, uning tuzulishi, asosiy ko'rinishlari, shakllarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois biz etnomadaniyat evolyutsiyasi va umum qabul qilingan "madaniyat" tasnifidan kelib chiqib, xalq madaniyatning asosiy sohalarini aniqlashga intildik. Xalq madaniyatini asosiy ko'rinishlarini aniqlash natijasida o'ziga xos xususiyatlari va tavsifiy belgilarini aniqlash xam katta ilmiy qiymatga egadir.

Oilaviy marosimlar. Ma'lumki, oilaviy marosimlar o'zbek xalq an'alarining asosiy va muhim qismini tashkil etadi. Oilaviy marosimlarning ko'pi bolalar hayotidagi muhim voqealarga bag'ishlangani uchun ham yoshlarning ma'naviy kamol topishida muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, o'zbek xalqi – toyparast xalq. U toy qilaman, dasturxon yozib, el duosini olaman, boshqalarni quvonchimga sherik qilaman degan maqsadda yashaydi. Shuning uchun toy o'zbek millati hayotida muqaddas hodisa hisoblanadi. Biroq, sovet davrida o'zbek oilaviy marosimlarini bir qismi ta'qiqlandi, ta'qiqlash mumkin bo'lmaganlari (masalan, "Nikoh toyi") yangicha umumsovet an'analari asosida o'zgartirila boshlandi. Mustaqillik sharoitida bu holatlarni to'g'rilash maqsadida oilaviy marosimlarning asosiy tadbirlari, chunonchi, "ismlash" odati, "chilla" udumlari, "soch toyi", "tish toyi", "pik toyi" "sunnat toyi", "muchal yoshi", "nikoh toyi" kabilarni tiklash uchun yo'l ochildi. Oilaviy qadriyatlarning tiklanish jarayoni milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida ham muhim hodisa bo'ldi. Ammo hozirga bozor iqtisodiyoti sharoitida, bir iqtisodiy xolatdan ikkinchisiga o'tish paytida oilaviy marosimlarga oid muammoli xodisalar ham ko'zga tashlanmoqda. Masalan, ko'pgina iqtisodiy baquvvat oilalar va dabdabali, haddan tashqari ko'p xarajatlar bilan isrofgarchilikka yo'l qoyib, toy o'tkazsalar, kam xarajatli Oilalar bolalarning rizqini qiyib, qarzga botib toy qilish ko'pgina marosimlar, masalan, "Beshik toyi", "Sunnat toyi" oila, qo'ni-qo'shni va qarindoshlar o'rtasida o'tkazilishga o'rniga, dabdabali bayramga aylantirib yuborilmoqda. Oddiy mehnatkash xalq ommasi madaniy-ijodiy faoliyat bilan asosan ishdan tashqari, ya'ni bo'sh vaqtda mashkul bo'ladi. Endilikda hanuzgacha deyarli

o'rganilmagan an'anaviy dam olish madaniyatiga alohida e'tibor berish lozim bo'lmoqda. Shu sababli xalq orasida mavsumiy dam olish an'analari ("Gul sayli", "Suv sayli", "Tog' sayli", "Bog' sayli", "Gap-gashtak" kabilarga hamda turli tarixiy jarayonlarda madaniy-ma'rifiy hordiq chiqarish maskanlari (Erkaklar uyi, Otashxona, Iygoq, Choyxona kabilar) tajribasi diqqatga sazovordir. An'anaviy xalq madaniyati va uning asosiy ko'rinishlari (xalq donishmandligi, e'tiqodi, pedagogikasi, an'analari, ijodi, dam olish madaniyati, oyinlari kabilar) insoniyatning tarixiy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, xalq qayotida o'zining munosib o'rnini topgan, avloddan-avlodga meros sifatida o'tgan, takomillashib, ijtimoiy taraqqiyotda muhim o'rin tutgan. Ular hozirgi zamonda ham jamiyatni ma'naviy kamol toptirish uchun muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ajdodlarimizning bu merosini yanada chuqurroq o'rganishimiz, tiklashimiz va kamol toptirishimiz uchun aql va kuch g'ayratimizni ayamashimiz lozim.

Xullas, asrlar osha shakllanib, avloddan-avlodga ma'naviy meros sifatida o'tib, rivojlanib kelgan urf-odatlar, marosimlar va bayramlarni saqlamasdan milliy tiklanish jarayonini amalga oshirish qiyin. Shu sababli bu borada jiddiy ilmiy amaliy ishlarni amalga oshirish lozim. Jumladan, respublika, viloyat, tuman, shahar darajalarida:

1. Xalq an'analrini o'rganish ilmiy markazi, laboratoriyaisini tashkillashtirish samarali natijalar berishi mumkin.
2. Milliy an'analarni saqlash, tiklash va rivojlantirish kengashlarini tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu jamoalar milliy an'analarni muammolarini muntazam ravishda qal qilib borishga o'z hissalarini qo'shib boradilar.

Xalq madaniyatiga oid muammolar. Ma'lumki, qayot uz joyida bir maromda turmaydi. Taraqqiyot xoxlaymizmi-yo'qmi, oldimizga muayyan muammolarni qoyib turadi. Albatta, ijtimoiy-ma'naviy soxalarning biri - xalq an'analari doirasida xam yutuqlar bilan birga o'ziga xos muammolar mavjud.



Ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan muammolarni hal qilmasak, ular borgan sari kattalashib va murakkablashib boraveradi va taraqqiyotga to'sqinlik qiladi. quyida ma'naviyat sohasining eng muhim muammolariga to'xtalamiz.

Birinchi muammo: madaniyat amaliyotini ravnaq toptirish uchun, eng avvalo, bu sohaning ilmini rivojlantirish lozim. Shunday qilsak, madaniyat ilmi bu soha amaliyotida vujudga kelgan muammolarni aniqlash va hal qilishga ko'mak beradi. Gap shundaki, madaniyat muammolarini bevosita tadqiq etadigan maxsus markaz hozirgacha respublikamizda yo'q. Bu soxaga yaqin tashkilotlar, muassasalar (masalan, Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi markazlari, Respublika madaniy-ma'rifiy ishlar va xalq ijodi ilmiy-metodik markazi, ta'lim markazi. San'atshunoslik instituti, Til va adabiyot instituti va boshqalar) asosan o'z yo'nalishida tashkiliy va targ'ibot ishlari, milliy g'oya va mafkura, ma'naviyat targ'iboti masalalari, san'at, adabiyot, til, xalk, ijodi boyicha xususiy tadqiqotlar bilan mashg'ul bo'lib, ular bevosita madaniyat muammolari bilan maxsus shug'ullanmaydilar. Bu ish ularning vazifalariga kirmaydi xam. Xullas, madaniyatning umumiy va o'ziga xos muammolari bilan shuqullanadigan maxsus ilmiy-tadqiqot markazi tuzilsa, u xalq madaniyatining amaliy ravnaq topishiga xizmat qilgan bo'lar edi. Ikkinchi muammo: ma'naviyatning moddiy zaminini mustaqamlash bilan bog'liq. Ayonki, madaniyatsiz (chunonchi, uning tarkibiy qismlari - ilm, fan, ma'rifat, axloq, din, san'at kabilarisiz) moddiy hayotni taraqqiy etishi qiyin bo'ladi. Xullas, an'anaviy xalq madaniyatini saqlash, tiklash va kamol toptirish uchun quyidagi poqq'onalarda ish olib borish lozim:

1. Xalq madaniyati durdonalarini tarixiy-ma'naviy meros sifatida, asl qolida, an'anaviy shaklda asrash;

2. Zamonaviy (jumladan, boshqa xalqlardan o'tgan) madaniy shakllarni an'anaviy unsurlar hisobiga boyitish;

3. Xalq an'analari asosida o'ziga xos zamonaviy, milliy madaniyati shakllarini bunyod qilish;

4. Kelajakda xizmat qiladigan, istiqbolli, yangi etnomadaniyat durdonalarini yaratilishi uchun sharoitlar hozirlash.

Mazkur jarayon an'anaviy xalq madaniyatini keng ko'lamda taraqqiy ettirishga samarali xizmat qiladi.

Madaniyat- inson jamiyati yaratgan va jamiyat rivojining ma'lum darajasini ifodalovchi moddiy va manaviy mahsulotlar, qadriyatlar majmui. Sotsiologiyada „madaniyat“ tushunchasi matematikadagi „sonlar“ fizikadagi „gravitatsiya“ ximiyadagi „modda“ tushunchalari kabi muhim ahamiyatga ega.

Madaniyat insonlarning faoliyati natijalarining majmui o'laroq, o'zida ikki holatni, ya'ni madaniy statikani va madaniy dinamikani, binobarin madaniyatning o'zgaruvchanligini mujassamlashtiradi.

Bizga malumki sotsiologiyada „madaniyat“ va „jamiyat“ atamaları tez-tez uchrab turadi. Shuning uchun ham, ular bir-biriga chambarchas bog'liq. U hoh moddiy, hoh ma'naviy boyluk bo'lsin, insonlar tomonidan ularning aqli, ongi, mehnati, zahmati evaziga bunyod bo'ladi. Mana shunday buyuk madaniyatni yaratuvchi insonlar jamoani tashkil etadi, jamoa esa, o'z-o'zidan jamoani yaratadi. Demakki, madaniyat mana shu jamiyatda yashovchi odamlarning turmush tarsi, faoliyati, urf-odati, marosimlari, rasm-rusumlari va albatta, ular yaratayotgan moddiylikka aloqador tushunchadir. Jamiyat esa, mana shu madaniyatni tan olgan, shu madaniyatga hissa qo'shuvchi individlarni bir-biriga o'zaro bog'lab turuvchi vositadir. Demak madaniyat jamiyatsiz, jamiyat esa madaniyatsiz bo'lishi mumkin emas. Agar madaniyat bo'lmasa, insonlar bir-birini anglamagan bo'lardi. Bola tug'ilgandanoq, chaqaloqligidanoq o'zi tug'ilgan va katta bo'layotgan madaniyatni angelay boshlaydi. Kattalar bolani ana shu muhitga yetaklaydi, o'sha jarayonlarning ba'zan sababchisiga, ishtirokchisiga aylantirib qoyadi. Ota-onalarning yoki bolaga mas'ul odamlarning barcha hatti harakatlari bolada o'z aksini ko'rsata boshlaydi. Bola ularni tushunishga, anglashga, o'zi mustaqil tarzda harakat qilishga urinadi. Unda hulq- atvorning ilk ko'rinishlari kurtak yoza boshlaydi. U yashayotgan

muhit, odamlar, talim- tarbiya , madaniyat va boshqa ko'plab tasirlar bolaning miyasida yangi g'oyalarni keltirib chiqaradi. U o'z-o'zidan jamiyatdagi meyorlarni, madaniyatni ongiga singdira boshlaydi. Lekin keyinchalik uning fikrlashi bilan uni tarbiyalagan insonlar yoki ota-onalarning fikrlash darajasi bir-biridan keskin farq qila boshlaydi. Xo'sh, nima uchun? Chunki jamiyatning rivojlanib borishida meyorlar o'zgaradi , madaniyat ham, qonun-qoidalar ham o'zgaradi. Buning natijasi qanday bo'lishi mumkin? Natijada, madaniyatlar to'qnashuvi, ya'ni ziddiyat yuzaga keladi. Katta yoshlilar va o'smir yoshlar o'rtasidagi keskin farqlar ularni ziddiyatga olib boradi. Qanday qilib? Axir o'sha bolani tarbiyalagan, unga ta'lim , unga yo'l-yo'riq ko'rsatgan, uni madaniyatga yo'naltirgan o'shalarning o'zi ediku. Nega endi bola ozi o'sgan muhitdan tonayapti yoki boshqacha qilib aytganda, qoniqmayapti? Madaniyat hamisha o'zgarib turadi, u rang-baranglik hususiyatiga ega. Zamon o'zgarishi bilan odamlarning fikrlashlari, dunyoqarashlari ham o'zgaradi. Lekin zamonning o'zgarishi katta yoshli „hukmron qatlam“ga o'z tasirini o'tkaza olmaydi. Shuning asosida ular hamisha o'z qarashlarini to'g'ri deb baholaydilar. Yoshlarning hatti harakatlari va qabul qilgan madaniyati ular uchun „deviantlik“ holati hisoblanadi. Yoshlar esa „hukmron qatlam“ning qonun-qoidalaridan, meyorlaridan chetga chiqqan holda o'z dunyolarida, o'z qonun-qoidalariga va meyorlariga amal qilgan holda yashashni maqul ko'radilar. Kattalarning ularga o'z hukmronligini o'tkazmoqchiligi yoshlar uchun „deviantlik“ hisoblanadi. Har ikki holatda ham, aslida, jamiyatdagi normal holat .chunki hamma narsa vaqti soati yetganda eskiradi va ularning o'rnini yangi turmush tarzi, yangicha hayot, yangi madaniyat, yangiqonun-qoidalar egallaydi. Bu almashinuv jarayoni jamiyat rivojini ta'minlaydi. Lekin „hukmron qatlam“ning „quyi qatlam“ga o'tkazadigan tazyiqlari yohud keskin choralar qo'llanishi „quyi qatlam“ning isyoniga, haqiqatan ham, „og'ish“ holatlariga olib kelishi uchun. Bu esa jamiyatdagi mavjud meyorlarni va doimiy normallikni o'zgartirib yuborishi va jamiyatdagi keskin burilishlarga, qaltis vaziyatlarga olib borish ehtimoli mavjud. Aslida bu juda kamdan kam holatlarda uchraydigan holatlardir. Lekin bu holat bir tekisda ketayotgan jamiyat hayotining osuda tizimlariga tasir ko'rsatishi mumkin. Masalan, ota-ona farzandiga ko'chaga

chiqishidan oldin qanday kiyinish lozimligini o'ziga yoqqanicha tushuntiradi. Farzandining istagi esa, ularning hohish istagiga umuman zid ravishda namoyon bo'ladi. Bu holat ota-onaning noroziligiga sabab bo'lishi va farzandini koyishi mumkin. Demakki, avlodlar orasidagi to'qnashuvlar, ziddiyatlar, muammolar azaldan mavjud va bundan keyin ham shundayligicha qoladi. Hayot qarama-qarshiliklar, ziddiyatlardan iborat. Shuning natijasida hayot davom etaveradi, jamiyat ilgarilaveradi.

“*Shom muborak*” marosimi. “Shombarak” atamasi aslida „shom muborak” bo'lib, kuyovning kelinni olib ketish uchun uning uyiga kelishi marosimining nomidir. San'atshunos Rustam Abdullayevning aniqlashicha, „shom muborak” yoki „shoh muborak” marosimi tojik xalqi orasida ham mavjud. Kuyov o'z jo'ralari bilan kelinning uyiga borayotganda ularning oldida ketayotgan qo'shiqchi va sozandalar jo'r bo'lishob „Shoh muborak” qo'shig'ini ijro etadilar. Bu qo'shiq Farg'ona vodiysi hamda Tojikiston Respublikasining Xo'jand viloyatida istiqomat qiluvchi o'zbeklarning nikoh toyi marosimi an'alariga ham singib ketgan.

„Ostonasi tillodan” ekspeditsiyasi tomonida ushbu marosimning shaxrihonda qayd qilinganligi ham yuqoridagi fikr to'g'riligini ko'rsatadi. Marosim quyidagi tartibda o'tkazilar ekan: kuyov qiz tomonidan yuborilgan sarupolarni kiygach, kuyovjo'ralar qurshovida kelinnikiga keladi. Kelinning uyida qiz tomon qarindoshlar, qo'ni- qo'shnilar, jamuljam bo'lishib kuyov kelishini kutishadi. Shu payt darvozadan ikki-uch bolakay „kuyov keldi!”- deb qichqirib chopib kirishadi. Birozdan so'ng kuyovva uning jo'ralari, sozanda va xonandalar kirib keladilar. Yigitlar „Shom muborak” qo'shig'ini aytib, raqsga tushib keladilar. Shahrixonda bu qo'shiq o'zbek va tojik tillarida , yani shiru shakar usulida ijro etilar ekan. Shuningdek, darvozadan kirilgandan keyin hovli sahnida „hayyor do'st, aylanaman”, „vohay bola” kabi qo'shiqlar ham ijro etiladi. Kuyov ichkariga yo'nalganda uning yo'lga poyonoz soladilar. Qizlar uning oldiga ro'mol tutib, „yo'l bog'ladi” udumini bajarishadi. Kuyov kelinning ko'rmanasini beradi, kelinning singlisiga va ukasiga atalgan sovg'alarini ham beradi. Qizig'I shundaki,

kelinning ukasiga kuyov tomonidan pichoq sovg'a qilinishi udumi Shahrixonda ham mavjud ekan. „Yo'l bog'ladi''udumi bajarilayotgan paytda qizlar „Deydiyo'' qo'shig'ini aytib turadilar. Kuyov ichkariga kirayotganda uning ustidan sochqi sochadilar.„Shom muborak'' nikoh toyi tarkibiga mansub an'anaviy udumlardan biri bo'lib,o'zining qadimiy ko'rinishini saqlab qolayotgan ma'naviy qadryatdir.

## **2.2. Oilaviy marosimlar, an'analar va urf-odatlar**

O'zbek xalqining oilaviy marosimlari tarixiy zaruriyat asosida vujudga kelgan va zamon chig'iriqlaridan o'tib, muhim manaviy qadriyat sifatida ravnaq topgan.

Xalqimizning avloddan- avlodga o'tib ketayotgan oilaviy marosimlari sho'rolar davrida jiddiy to'siqlarga uchragan bo'lsa ham, mustaqillikka erishilgandan so'ng ular qayta tiklana boshlandi. oilaviy marosimlar xalq ma'naviyatining tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyati, tasirchan tarbiya vositasi sanaladi. Oilaviy marosimlar jarayonida namoyon bo'ladigan odob-axloq, mehr-oqibat kabi hislatlar yoshlar manaviyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Marosim va bayramlar inson hayotining uzviy qismi hisoblanadi. Har bir kishining shaxsiy hayotida shunday muhim voqealar, bosqichlar mavjudki, ular alohida e'tiborni, xursandchilikni taqozo qiladi. Bu hodisalar o'ziga xos tantana va bayram tarzida nishonlanadi. Farzandning tug'ilgan kunini, unga ism qoyishni, bolasining ilk qadam bosishini, o'g'il- qizning birinchi bor maktabga borishini, o'rta maktabni bitirishni bayram qilish, nikoh toyini, kumush, oltin va olmos toylarini, nafaqaga kuzatish kabilarni tantanali tarzda nishonlash inson hayotidagi unutilmas voqealardir. Bundan tashqari, kishi hayotida ijtimoiy harakterga ega bo'lgan ko'pgina hayajonli hodisalar ham yuz beradiki, ular ham bayramona yoki tantanali kayfiyat yaratadi. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtiga o'qishga kirib, talaba bo'lish, uni tugatish, ishga kiritish, 40, 50, 60, 70, 80 yoshini nishonlash marosimlari kishi hayotida shunday voqealar sirasiga kiradi.

O'zbek oilalarida chaqaloq tug'ilgandan to voyaga yetib, o'zi yangi oila qurgunicha quyidagi odat va marosimlar o'tkaziladi:

- Homilador ayolni va hali tug'ilmagan chaqaloqni asrash bilan bog'liq odatlar.
- Chaqaloq tug'ilishi (suyunchi, bolani yangi sharoitga moslash kabilar.)
- Chaqaloqni sog'ligini saqlash (chaqaloq chilla – katta va kichik chillalar)
- Nom berish odatlari (ism qoyish marosimi)
- Chaqaloqni beshikka solish marosimi (“ beshik toyi”)

- Ilk bor soch oldirish marosimi (“soch toyi”, ”aqiqa”)
- Tish chiqishi (“tish toyi “)
- Bolaning birinchi qadam qoyishi (“oyoq toyi”, “Ilk qadam”)
- O’g’il bolalarni sunnat qilish (“sunnat toyi”)
- Bolalarning 12 yoshga to’lishi (“muchal toyi”)
- yangi oila qurish odatlari (“nikoh toyi “) va hokazolar.
- Kumush, oltin va olmos toylari
- 50,60,70 yoshni nishonlash maroslarimi

### ***“Birinchi qadam”***

O’zbek xalqini farzandlar tarbiyasiga alohida e’tibor berishi bolaning ilk bor mustaqil qadam qoyishiga bag’ishlangan marosimda ham o’z aksini topgan. Ajdodlarimiz bu marosimda “To’q bo’lsin, bola ocharchilikni bilmasin!” deb mazali kuchlarni kichkintoylarga tarqatishgan, „suvdek serob bo’lsin !” deb, marosim o’ykazilayotgan vaqtda bolaning qadam bosgan yerlariga suv sepkan, „bolaning hayoti shirin bo’lsin!” deb marosim qahramonining boshidan shirinliklar sochishgan, „chiroyli bo’lsin!” deb yura boshlagan bolaning yo’llariga gullar sochishgan, „boy bo’lsin!” deb bolaning boshidan pullar sochishgan, „kasalga chalinmasin!” deb isiriq tutatishgan, „ko’z tegmasin” deb ,ko’zmunchoqlar taqishgan, „kinna kirmasin” deb duolar o’qishgan va hokazo.

„Birinchi qadam” marosimiga ushbu oilaning eng yaqin qarindoshlari, qo’ni-qo’shnilar va albatta, bolalar taklif qilingan. Bolalar avvalgi marosimni tomosha qilishgan, tadbir qahramoni totgan shirin nonlar va shirinliklardan yeyishgan, suv – sharbatlar ichishgan. Bolaning mehmonlar oldida birinchi qadam qoyish marosimining asosiy voqeasi bo’lib, undan so’ng bola tezroq “chopqir,chaqqon bo’lsin!” deb bolalar o’rtasida poyga uyishtirilib, g’oliblarga tantanali ravishda kovush- do’ppi, belbog’ kabi mukofotlar berishgan.Mazkur bayram bolalarning madaniy dam olishi, jismoniy chiniqishi, ma’naviy kamol topishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Bolaning birinchi qadam qoyishini marosim sifatida nishonlashning o'ziga xos ramziy ma'nosi bor. Birinchi qadam bolaning shunchaki oddiy harakati bo'lib qolmay, kelajakda qilinadigan ko'plab ishlarning debochasi deb ham qaralgan.

Marosimning muhim shartishundan iboratki, bola birinchi qadamini ishtirokchilar oldida, jamoa o'rtasida qoyishi lozim bo'lgan shu sababli ham ba'zi joylarda, jumladan, Qoraqolpog'istonda bola hech kim yo'qligida qadam tashlamasligi uchun uning oyog'ini uning oyog'ini chiroyli ip bilan bog'lab qoyishgan. Marosim o'tkaziladigan kunda bu ip tantanali ravishda yechilgan yoki qaychilangan, so'ng bola ilk qadamini qoygan. O'zbekistonning turli hududlarida „Birinchi qadam“ marosimi turlicha o'tkazilib kelingan. Ayrim joylarda bu tadbir faqat ayollar va bolalar ishtirok etadigan kichik oilaviy marosim sifatida uyushtirilgan.

Hozirgi paytda bu qadimiy an'ana bilan bog'liq ayyom, 1-iyun-„Xalqaro bolalar kuni“ qiziqarli qilib uyushtirilmoqda.

Sunnat toyi. Sunnat qilish qadimiy zamonlarda o'g'il bolalarning bolalikdan o'spirinlikka o'tish davrida o'tkaziladigan- intsiatsiya (jismoniy va ruhiy sinov) marosimlarining bir qismi sifatida shakllangan va keyinchalik alohida tadbirga aylangan. Sunnat issiq iqlimli hududlarda yashovchi xalqlar o'rtasida gigiyena (ozodagarchilik) ka rioya qilish usuli sifatida taraqqiy etgan. Qadim zamonlarda boylar o'tkazadigan sunnat toylari bir necha kun davom etgan va ularda kata tomoshalar (masxarabozlar, dorbozlar, polvonlar, qo'g'irchoqbozlar san'atlari) namoyish qilingan, yirik musobaqa- uloq, kurash, poygalar o'tkazilgan. Shuningdek, xatna toylarining o'ziga hos oyinlari „Kim chaqqon?“, „Mast bola“ kabilar bolalar tomonidan sevilib oynalgan. Hozirgi paytda o'tkazilayotgan sunnat toylarining asosiy shakli katta yoshlilar qatnashadigan davra bazm bo'lib qolmoqda. Xatna toylari barcha hududlarda deyarli bir xil tarzda o'tkaziladi: davra-bazmda toyga tashrif buyurganlar turli taomlar, nozu- nematlar, ichimliklar istemol qilishadi. Tabrik so'zlarini, san'atkorlarning kuy-qo'shiqlarini tinglashadi, raqsga tushishadi. Hozirgi toylarda bolalarbop tomosha -oyinlarni uyushtirish e'tibordan chetda qolmoqda. Xatna toyining uchinchi qismi- toydan keyin o'tkaziladigan



tadbirdir. Ularga: toyda xizmat qilganlarga alohida ziyofat berish, unga, shuningdek, „toy qahramoni” ning xolidan xabar olish, sovg’alar, pul in’om etish kabilar kiradi.

### „Sovchilik”

O’g’li bor xonadon nomidan qiz o’stirayotgan oilaga borib, qizning qo’lini so’rash udumi. Yigit tomon o’zi mo’ljallagan oilaning qiziga sovchi yuborishdan avval, u qiz birovga fotiha qilinganmi yoki yo’qmi ekanligini bilish uchun o’sha oilaning yaqin qarindoshlari yohud qo’ni-qo’shnilari orqali surishtiriladi. Bu odat xalqimizda „og’iz iskaldi” deb yuritiladi. Shu tariqa qizning „boshi bo’sh” ekanligi aniqlangach, sovchi yuboriladi.

Andijon viloyati tumanlarida qizi bor oilaning yaqin kishilari yoki yigit tomon vakillari orqali qizini kelin qilib berishga ota- onasining roziligini olish odati „og’iz ochdi” deb ataladi. Tilshunos olim A. Jo’raboyevning aniqlashicha, Andijon shevasida shu manoni anglatuvchi „og’iz bog’ladi”, „og’iz bosdi”, „og’iz bostiriq” kabi atamalar ham mavjud. „Sovchi” so’zi juda qadimiy atama bo’lib, II asrda yashab ijod qilgan mashhur olim Mahmud Qoshg’ariy „Devonu lug’oti turk” asarida „kelin va kuyovlar orasida bir- biriga xat-xabar eltuvchi” manosida keltirilgan. (M. Qoshg’ariy, 3,169). Bu so’zning o’zagi „sav” leksemasi bo’lib, „-chi” shaxs oti yasovchi qo’shimchadir. „Sav” so’zi esa qadimgi turkiylar tilida „nutq”, „xabar”, „So’z”, „ma’lumot”, „biror xabarni yetkazmoq, ma’lum qilmoq” ma’nolarini anglatgan. Demak, „sovchi” atamasi „xabar, ma’lumot, gap-so’z, yangiliklarni yetkazuvchi kishi” ma’nosida qo’llanilgan bo’lib, jumladan, yigit xonadoni nomidan qizi bor oilalarga yuboriladigan vositachi vazifasini ham bajargan. Sovchilik udumi asosan ikki xil usulda amalga oshirilgan:

a) Kuyov bo’layotgan yigit yashaydigan mahallaning hurmatli oqsoqollari yoki qarindoshlaridan bittasi yoki bir nechtasi qizning uyiga sovchilikka boradi.

b) Kuyovning onasi yoki uning yaqin qarindosh ayollari dasturxon yasab sovchilikka boradilar. Ular bir necha marta borishadi va oxirgi borishlarida odatda to’qqizta patir, qatlama solingan dasturxon olib boradilar. Agar qiz tomon rozi bo’lsa, dasturxonni ochib, qatlama patirlarni oladi; rozi bo’lmasa, dasturxonga

tegmasdan qaytaradilar. Qiz tomon moyillik bildirsa, erkak sovchilar yuborilishiga ishora qiladi. Ayrim joylarda qiz taraf rozilik bildirganligini anglatish uchun sovchilarni yaxshi taom bilan siylaydi. Bu odat „og'iz moylandi” deyiladi.

Etnograf K. Shoniyozov qarluqlarning nikoh toyi marosimi udumlari haqida to'xtalib, quyidagilarni yozadi: „Kelin bo'ladigan qiz tanlangandan keyin yigit tomondan ikki ayol-kuyov bo'lgichning ammasi, xolasi yoki turmushga chiqqan opasi sovchilikka borishadi. Ular o'tovga kirishdan avval, „Qulchilikka keldik!”- deyдилar. Qizning onasi esa „Xush kelibsizlar!”- deb kutib oladi. Sovchilar oldiga dasturxon yozilgan, choy ichishib o'tirib, gap orasida sovchilardan biri maqsadni ayon qilgan. Agar qiz tomon sovchilarning taklifini qabul qiladigan bo'lsa, qizning onasi qarindosh-urug'lar bilan maslahatlashish zarurligini bayon etgan. Mobodo bu yigitga qizini berishni hohlamasa, Bizning qizimiz hali kuyovtalab bo'lgani yo'q” yoki Bizning qizimiz fotihali” deb javob qaytarishgan. Agar qiz tomon qudalashish niyati bo'lsa, kelgan sovchilarni kuzatayotganda „Xush kelibsizlar, yana kelinglar!”- deyiladi. Oradan 2-3 kun o'tgach, sovchilar yana qaytib kelishadi. Agar qiz tomon qudalashishga rozi bo'lgan bo'lsa, qizning onasi masalani uzil-kesil hal qilish uchun, erkak sovchilar kelishi kerakligini aytadi. Shunday deb, u bir oq ro'molga ikkita non bilan ikkita qatlama hamda qo'lro'molni tugib sovchilarga beradi. Bu qiz tomonning rozilik alomati hisoblanadi. Sovchilar bu tugunni yigitning onasiga olib borib topshiradilar. U bitta non bilan qatlamani ushatadi-da, „sizlar ham toy ko'ringlar!”- deb, davrada yig'ilganlarning bariga ulashib chiqadi, qolgan non bilan qatlama hamda ro'molchani esa minnatdorlik ramzi sifatida sovchilarga beradilar. (K. Shoniyozov, 141-142) Yakkabog'da kuyov tomondan qizga sovchi yuborilganda yigitning bobosi yoki otasi sovchilarning beliga belbog'- belqars bog'laydi. Qiz xonadoniga borgan sovchi o'tirib gap boshlash asnosida belidagi belqarsni asta- sekin bo'shatib qoyar ekan. Shunday qilinsa, qiz tomon ham sekin- asta „bo'shashib”, qudalashishga rozi bo'ladi deb oylaydilar. Andijonlik sovchilar qiz xonadoniga olib boradigan sovg'a- salomlari orasiga bitta kichkina oq tuguncha ham qo'shib qoyadilar. „Shayton, oralama “ deb ataladigan bu oq tuguncha

„qudalashayotgan ikki oila orasiga sovuqlik tushmasin, munosabatlari hamisha iliq, sovchilarning yo’li oq bo’lsin, yo’ldan uruvchi kishilar niyatiga yetmasin” degan maqsadda qoyiladi. Sovchilarning o’ziga hos aytim-so’zlari ham mavjud bo’lganki, bu ulardan so’zamollikni, chechanlikni, xushmuomalalikni talab qilgan. Xususan, Boysun tumanining Qizilnov qishlog’ida yashovchi qatag’on urug’iga mansub o’zbeklarda sovchilikni „elchilik” deyishadi. Sovchilar qiznikiga borganda:

Elga tushgan elchiman,

Qizga kelgan sovchiman,

Bir qorabay cho’ri so’rab keldim,-deyishgan.

### “Fotiha toyi”

Yigit bilan qizni unashtirib qoyish marosimi. Surxon vohasida yashovchi qo’ng’irot, juz urug’larida bu marosim o’tadigan kuni kuyov xonadonidan kelin tarafga patir, qatlama, non, qand-qurs, pishiriqlar, qoy va boshqa narsalar qatori kelinga atab turli xil kiyimlik va ko’rpalik matolar, shuningdek, ro’mol solingan „buqcha” yuborilgan. Buqchaga matolardan tashqari kelin- kuyov bola-chaqali, hayoti shirin, mazmunli bo’lsin degan niyatda qand, shirinliklar, har hil taqinchoqlar va bug’doy ham solingan. „Fotiha toyi” „buqcha ochar” udumi bilan boshlangan. Bir nikohli, bola-chaqasi ko’p bo’lgan ayol buqchani ochayotib: „Jigiti munchoq boynigda, jigiti yoring qoyningda, umring uzoq bo’lsin, bola-chaqang ko’p bo’lsin, borgan joyingdan baxt top’”,-degan. Fotiha toyidan keyin quda-andachilik davom etgan va bayramlarda „hadya tovoq” yuborilgan. „Fotiha toyi”da qoy soyilgan va kelgan mehmonlarga sho’rva bilan „qat-qat patir” tortilgan. Bu udumda kuyov oilasi tomonidan patir yopib borilishi va dasturxonga patir qoyilishi „ikkiyoshning turmushi patirday yog’li bo’lib, o’zaro bir-biriga qapishib, o’zlaridan ko’payib yurishsin”, degan ramziy ma’noni bildirgan. Marosim yakunida qudalarga „oqliq” tarqatilgan, ya’ni oq ro’molga ikki yoshning taqdiri birlashganligini elga malum qilish maqsadida juftlab sindirilgan non bo’laklari va shirinliklar solingan. Bu xalq tilida „nonu sochiq” deyilgan. Folklorshunos M. Alaviya yozib olgan ma’lumotga

ko'ra, Samarqand viloyatining Ishtihon tumanida „fotiha toyi” quyidagi tartibda o'tgan: „Boshi bog'langan” qizning hovlisida „fotiha toyi” taraddudi boshlanib ketadi. Yigit tomonidan toy uchun solingan barcha narsalar yuboriladi. Mol soyilib, nonlar yopiladi. Belgilangan kuni chidirmalar chalinib, toy shodiyonasi boshlanib ketadi. Kechga yaqin yigit tomonidan qari- yu yosh qudalar va qudag'aylar, ya'ni xotin qudalar fotiha toyiga kelishadi. Kelin bo'lmish qizning hovlisi oldida qudalarni kutib olish uchun qarindosh –urug'lar to'planib kutib turadilar. Kelgan qudalarning peshonasiga „un surtish”, tug'rirog'I, „ un tiqish” uchun qiz tomonidan zo'r –zo'r yigitlar va kelinchaklar tayyor bo'lishib turushadi. Qudalar kelishi bilan yosh bolalar ot -ulovlarni ushlay boshlaydilar. Kattalar esa bir ikki tovoq un tugaguncha, yani kuyov tarafdin kelgan qudalar toy xonaning ichkarisiga qochib kirishmaguncha ularning og'izlariga un tiqishadi. Qudalarning peshonasiga, ular minib keladigan otlarning manglayiga un surtish, qudag'aylarning og'ziga un tiqish juda qadimiy odat bo'lib, muyyan ramziy ma'noni anglatadi. ishtihonliklar udumicha, „soqollaringiz unday oqarib yursin deb, erkak qudalarning iyaklariga un surkab qoy'adilar. Bizning fikrimizcha, „un surtish” udumining zamirida serhosillik g'oyasi bilan bogliq qadimiy tasavvurlar yotadi va „kelin-kuyovning rizqi mo'l bo'lsin, ro'zg'oridan baraka arimasin” degan niyatda shu udum bajariladi.

Qiz bilan yigitni bir-birlariga unashtirib qoygandan keyin yarim qadoq chamasi qandni ikkiga bo'lib yarmini o'sha yigitga, qolganini qizga qandchoy qilib berishgan. Shunday qilinsa ularning hayotiham qandday shirin bo'lib, umr boyi tinch-totuv yashashar ekan.

### **“Nikoh toylari”**

O'zbek nikoh toylari oilaviy marosimlar ichida eng yirigi bo'lib, uni tashkil qilish va o'tkazish uch bosqichli jarayonni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqich- kelin tanlash, unga sovchi yuborish, non sindirish, fotiha qilish kabi marosimlardan tashkil topadi.

**Ikkinchi** bosqich – kelinni kuyovning uyiga olib kelish, nikohlash, toy-tomosha, bazm kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Uchinchi bosqich- nikoh toyidan so'ng o'tadigan-„yuz ochdi”, „kelin salom”, „kuyov chaqirdi” kabilarda iborat.

Hozirgi paytda nikoh toylarida ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Bugungi nikoh toylari avvalgi zamonlarda bo'lganidek, ota onalarning o'zaro kelishuviga binoan emas, balki yigit-qizning roziligi, o'zaro muhabbati asosida o'tkaziladi, kelin kuyovning qaysi tabaqaga mansubligidan qat'iy nazar, ularning teng huquqligita'minlanadi. Balog'atga yetmagan yoshlarning nikohdan o'tkazish butunlay yo'qoldi. bulardan tashqari, „qalin”, „sut puli” kabi ortiqcha harajat talab qiladigan qadimiy udumlar deyarli barxam topdi, ortiqcha harajatlar butunlay yo'q qilinmasada, ularning o'rnini yangi oila uchun zarur bo'lgan jihozlarni olib berish an'anasi egalladi. O'zbek nikoh toylari hozirgi paytda asosan uchta marosimdan iborat bo'lmoqda:

1. „Non sindirish” – unashish marosimi kelin va kuyovning ota-onasi, qarindoshlarining nikoh toyiga rozilik berish va uni o'tkazish rejasini tuzib olishlari uchun zarur bo'lgan muloqot-kengash vazifasini o'taydi.

2. Kelin va kuyovning FXDYO royhatidan o'tishi. Bu yangi an'ana oilaning huquq va majburiyatlarini qonunlashtirish vazifasini bajaradi.

3. Toy marosimi (nikoh kechasi) yosh yigit- qiz oila qurganligini tantanali nishonlash uchun xizmat qiladi.

Hozirgi paytda “Toy bazmi”, “Baxt kechasi”, “Muhabbat kechasi” yoki “Visol kechasi” deb yuritiladigan nikoh toylarining zamonaviy an'analari vujudga kelmoqda. Endilikda toy tadbiri o'tkaziladigan joyni bezash, to'rda gilamlardan tashkil topgan davra to'riga serjilo gilamlar osib, unga kelin-kuyovning ismini yozish va nikoh ramzi-birlashgan ikki xalqa tasvirini tushurish, toy dasturxonini turli noz-ne'mat va mevalar bilan bezash, kelin-kuyovlarni “Toylar muborak” qo'shig'I bilan tantanali kutib olish, mahalla qo'mitasi raisining toyni ochishi, toy ishtirokchilarining ikki yoshga dil so'zlari va istaklarini bayon qilishi, kuy-qo'shiqlar

ijro etishi, bazm ishtirokchilarining oyin raqsga tushishi, kelin-kuyovni „Birinchil visol oqshomi”ga kuzatish, nihoyat, xonadon boshlig’I yoki mahalla oqsoqollaridan birining tantana yakunida tilak bildirishi kabilar zamonaviy o‘zbek toylarining asosiy unsurlariga aylangan.

O‘zbek xalqi etnik madaniyatida nafaqat tarixiy-madaniy an’analar, shu bilan birga, bugungi yoshlar ma’naviyatiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-tarbiyaviy tajribalar ham mavjudki, ulardan samarali foydalanish istiqloq mafkurasini badiiy-emotsional va ommaviy vositalar bilan boyitadi. Buning uchun esa, etnomadaniy an’analarni milliy istiqloq g‘oyasi maqsadlari bilan uyg‘unlashtirish, jamiyat taraqqiyoti kun tartibiga qo‘yayotgan vazifalarga yo‘naltirish, hatto o‘zgarib borayotgan dunyo talablariga muvofiq modernizatsiyalash zarurdir.

O‘zbek etnik madaniyatining eng muhim qismi bo‘lgan oilaviy-maishiy marosimlar bir-biriga dialektik bog‘liq ikki yo‘nalishda ijtimoiy borlig‘imizga ta’sir ko‘rsatmoqda. **Birinchisi**, oilaviy-maishiy marosimlardan tarixiy-madaniy meros sifatida foydalanish, **ikkinchisi**, ulardagi transformatsiya, novatsiya va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash (zamonaviylashtirish)dir.

O‘zbek ayollari ijtimoiy-tarixiy va ma’naviy-diniy omillar ta’sirida oila, farzandlar tarbiyasi, maishiy turmush bilan mudom band bo‘lib kelgan. Farzand tug‘ish bilan bog‘liq psixofiziologik hollar ayollarni dunyoga eng yaqin kishilari – farzandlari, eri, nevaralari, qarindosh-urug‘lari orqali qarashga o‘rgatgan. Ayniqsa, ketma-ket farzand tug‘ish, tabiiy ravishda, ayolni oilaga, uy muhitiga bog‘lab qo‘ygan. Bu esa, ayollarda erkaklarnikidan farq qiluvchi axloqiy tushunchalarni, oilaviy-maishiy hayotdagi barqarorlikni ta’minlovchi urf-odatlar, marosimlar, an’analarni yuzaga keltirgan. Shuning uchun oilaviy-maishiy marosimlarning tashkilotchilari, avlodlardan avlodlarga eltuvchilari, asosiy ishtirokchilari – subyektlari ayollardir.

Oilaviy–maishiy marosimlar ijtimoiy–funktional nuqtai nazardan: a) oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga; b) yoshlarni oilaviy-maishiy hayotga

o'rgatishga; v) yangi oila qurishga; g) sog'lom farzandlar tarbiyalashga; d) dam olish va hordiq chiqarishga; ye) qarindosh-urug'chilik an'analarini davom ettirishga qaratilgandir. To'g'ri, oilaviy-maishiy marosimlar oilaning xo'jalik yuritish, reproduktiv vazifalari, oila a'zolarining sog'ligini saqlash kabi funksiyalari bilan ham bog'liqdir. Aristotel oilaning rang-barang va murakkab munosabatlardan iboratligini nazarda tutib, uni «davlatning bo'lagi» deb atagan. Shuning uchun oilaviy-maishiy marosimlar davlat va oila hayotining barcha qirralari bilan bog'liq holda transformatsiyaga uchraydi. Bizning fikrimizcha, ushbu qirralar oilaviy-maishiy marosimlarning yuqoridagi ijtimoiy funksiyalarida yetarli darajada o'z aksini topadi.

Oilaviy-maishiy marosimlarda umumetnik, sinfiy va shajaraviy (oilaviy-nasliy) an'analar qorishib, bir-biriga dialektik bog'lanib keladi.

O'zbek xalqiga xos etnomadaniy va etnopsixologik hodisalardan biri bolajonlikdir. Shuning uchun u bolaning otasi «pushti kamaridan ona rahmiga o'tgan»idan boshlab turli oilaviy-maishiy marosimlar o'tkazib keladi. Ularga «Suyunchi», «Cho'miltirish», «Ism qo'yish», «Beshikka solish», «Beshikkerti», «Qovurdoq», «Chalpak pishirish», «Yupqa pishirish», «Aqiqa», «Chillagizoron», «Tirnoq oldi», «Beshik to'yi», «Soch to'yi», «Tish chiqdi», «Ilk qadam», «Sunnat to'y», «Muchal yoshi», «Nikoh to'yi» kabi marosimlarni kiritish mumkin. Bundan tashqari, faqat erkaklarga xos bo'lgan «Gap-gashtak», «Mo'ylov oshi», «Sabzi to'g'rash», ayollarimizga xos bo'lgan «Namozshom pardoz», «Xalfana», «Ayollar gapi», «Ayollar hashari», o'zbek qizlariga oid «Arg'imchoq uchish», «O'sma qo'yish», «Soch o'rish», «Xina qo'yish» kabi marosimlar ham mavjud.

**"Suyunchi"** aytishda xalqimizning etnomadaniy xususiyatlari o'z aksini topadi. Masalan, "Suyunchi" keltirgan odam xabari kishilarga qanday ta'sir qilishini, xabar kimga - qari yoki yosh, ayol yoki erkakka mo'ljallanganini, ular xabarga qanday munosabatlar bildirishini oldindan bilishi kerak bo'lgan. Badxabar keltirganni xalqimiz yoqtirmagan, xushxabar keltirganni siylagan, aziz mehmon deb qarshilagan. Natijada, uzoq rivojlanish jarayonida xabar yetkazish

o'ziga xos ruhiy-ma'naviy voqeaga aylangan. Xabar xasta yo keksa (buvi, buva)larga yuborilgan bo'lsa, gapni uzoqdan, his-hayajonga berilmay, o'ta bosiqlik bilan yetkazilgan. Bundan tashqari, xabarning yangiligi, qancha kutilgani, xushxabar yoki badxabarligi ham hisobga olingan. Xabarchini taqdirlash, suyunchi berish vazifasini asosan ayollar bajargan.

**CHO'miltirish marosimi.** Ilgari o'zbek ayollari o'z uylarida tuqqan. "CHO'miltirish" marosimida farzand tug'ilgan xonadondagi katta-kichik ayollar ishtirok etgan. Marosimga ko'pni ko'rgan, kayvoni ayol boshchilik qilgan. Chaqaloqni onasi yoki buvisi qo'lga olib, "bismilloh" aytib, iliq suvga solgan. Tog'oradagi suvga rizqli-nasibali, sog'lom bo'lsin, balo-qazodan asrasin degan niyatda kumush solingan. Ayollardan biri chaqaloq ustidan suv quyib turgan, u har suv quyganida atrofdagi ayollar «boshing toshdan bo'lsin», «umring uzoq bo'lsin» kabi ezgu niyatlarini bildirgan. Suvni avval chaqaloqning boshidan, keyin o'ng yelkasi, so'ngra chap yelkasiga quyishgan. Bu «Ollah avval insonni boshini yasagan, insonni ikki yelkasida ikki farishta o'tiradi, Ollah har bir ishni o'ng tomondan boshlashni buyuradi», degan tasavvurlarni anglatgan.

Ayollarimiz zamonaviy tug'ruqxonalarda farzand ko'rishga o'tgach, «CHO'miltirish» marosimi ham transformatsiyaga uchradi, ko'p joylarda u unutilgan.

**"Ism qo'yish" marosimida** xalqimizning bosib o'tgan ziddiyatli tarixiy yo'li, orzu-umidlari, armonlari, falsafiy, diniy, ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy-estetik qarashlari, insonga bo'lgan hurmat-ehtiromi, farzandiga qaratilgan mehr-muhabbati o'z ifodasini topgan.

Chaqaloqqa munosib ism topilgach, qarindosh-urug'lar yig'ilib, marosimga tayyorgarlik ko'rgan. Farzand ko'rgan ayol bayramdagidek yasangan, chaqaloq ham yangi, chiroyli matolar bilan yo'rgaklangan. Qarindosh ayollar turli xil pishiriqlar pishirgan, is chiqarishgan, dasturxon bezatib, tansiq taomlar tayyorlashgan. So'fi yoki mulla chaqaloqning o'ng qulog'iga azon va chap qulog'iga takbir o'qigan, so'ngra chaqaloqni qo'lga olib, uch marta «Sening



isming falonchi» deb aytgan. Shundan soʻng atrofdagilar ona-bolani qutlab, ular boshidan shirinliklar sochishgan, oʻyin-kulgu qilishgan. Ayollarimiz dasturxon atrofida goʻdak tarbiyasiga oid suhbatlar uyushtirishgan. Hozir bu marosim transformatsiyaga uchragan. Atoqli shaxslar, badiiy asarlar qahramonlarining ismlarini qoʻyish anʼana boʻlib bormoqda.

**«Beshikka solish»** xalqimiz etnik madaniyatiga xos boʻlgan marosimlardandir. Unga goʻdak tugʻilmasidan oldinroq tayyorgarlik koʻrishadi. Buvilar beshik, unga yopinchiq, koʻrpachalar tayyorlab, nevarasiga ham yangi liboslar kiygizadi. Marosimga yaqin kishilar–ayollar chaqiriladi. U chaqaloq tugʻilganidan 7-9 kun oʻtgach oʻtkaziladi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida beshikdagi oʻrinni bir necha marta silab, «egalari kirsin, bobovlari chiqsin», deb ziyonkashlardan tozalangach, bola beshikka solinadi. Fargʻona vodiysida beshikka solish oldidan bir onaxon qoʻliga bolani, ikkinchi onaxon qoʻliga kichikroq toshni oladi, avval qoʻlida toshi bor ayol «mening beshigim» deb beshikka toshni qoʻyadi, keyin esa ikkinchi ayol «mening beshigim» deb, beshikka bolani yotqizadi. Bu holat uch marotaba takrorlangach, beshikka chaqaloq belanadi. Beshikka tosh qoʻyish goʻdakning boshi toshday qattiq boʻlsin degan maʼnoni anglatadi.

Marosim paytida ayollarimiz alla-qoʻshiqalar aytadi, goʻdakni yoʻrgaklash, beshikni tozalash va ins-jinslarni quvish, bolaning sogʻ-salomat oʻsishiga oid suhbatlar uyushtiriladi. Marosim maʼnaviy-tarbiyaviy xususiyatga ega boʻlgani uchun u deyarli barcha oʻzbek oilalarida oʻtkaziladi.

**«Qovurdoq» marosimi** farzand tugʻilganidan bir necha kun oʻtgach oʻtkazilgan. Belgilangan kuni kelinning onasi goʻsht, kartoshka va tuxumdan qovurdoq tayyorlaydi, qarindosh ayollar ham biror tansiq taom pishiradilar va kuyov xonadoniga tashrif buyuradilar. Marosimda aynan qovurdoq tayyorlanishining boisi u kuchli taom hisoblanib, yangi koʻzi yorigan kelinga quvvat boʻlishidir.

“Qovurdoq” marosimiga qarindosh-urug‘lar, quda-andalar va qo‘ni-qo‘shnilar taklif etiladi. Ayollar marosimda dam olgan, shirin taomlardan iste‘mol qilgan, oila, ro‘zg‘or tashvishlarini vaqtincha unutib, hordiq chiqargan. «Qovurdoq» marosimi ko‘proq Toshkent shahri va viloyatiga xos bo‘lib, boshqa viloyatlarda uchramaydi.

«**Chilla to‘yi**» o‘zbek xalqi etnik madaniyatidagi negizi matriarxat tuzumiga borib taqaluvchi marosimdir. Ko‘zi yorigan ayol va chaqaloq qirq kungacha yomon ins-jinslar, yomon ko‘zlar ta‘siridan, turli xastaliklarga chalinishdan himoya qilingan. Marosimning ushbu funksional xususiyatida o‘zbek xalqi etnik madaniyatiga xos insonparvarlik g‘oyalari bo‘rtib turadi.

«**Chillagizoron**» ona va bolani xavf-xatardan salomat «qutilgani», oila a‘zolari safiga yana bir inson qo‘shilgani sharafiga kelin (ayol)ning ota-onasi xonadonida o‘tkaziladigan marosimdir.

Kelin (ayol) go‘dagi bilan ota-onasi uyiga ovsinlari, qaynsingillari hamrohligida kirib kelganida, uning oyog‘i tagiga oq poyonoz solinadi. Oq poyonoz go‘dak bu xonadonga birinchi marotaba kelyapti, o‘zi bilan birga poklik, yaxshilik olib kirsin, degan fikrni anglatadi. Kelinni onasi chaqaloqni og‘ziga asal (tili shirin bo‘lsin degan niyatda), sariyog‘ (yolg‘onchi, gap tashuvchi bo‘lmasin degan niyatda) yalatadi. Chaqaloqni ilk bor ko‘rayotgan kelinning otasi, aka-ukalari, qarindosh-urug‘lari ko‘rmana beradi.

«Chillagizoron» marosimining asosiy tashkilotchilari ayollardir. Sovetlar davrida chillani taqiqlashga urinishlar bo‘ldi, biroq u, oilaviy-maishiy hayotdan, ayollar etnik madaniyatidan chuqur joy olgani bois hozir ham mavjuddir.

«**Tirnoq oldi**» marosimini eng keksa, diyonatli, mo‘tabar onaxon olib borgan. U go‘dakning barmoqlarini unga botirib olib, «bismilloh» aytib, tirnoqlarini olishga tushgan. Bu paytda atrofdagi ayollar yaxshi niyat aytib turishgan. Olingan tirnoqlar «bola unib-o‘ssin, kelajakda serfarzand, serdavlat bo‘lsin» degan niyatda biror mevali daraxt tagiga ko‘milgan.

«Tirnoq oldi» kichikroq marosim hisoblansa-da, xalqimiz bu voqeani oilaviy-etnomadaniy hodisa sifatida o‘tkazib keladi.

**Beshik to‘yi** – o‘zbek xalqining keng tarqalgan chilladan keyin o‘tkazadigan marosimidir. U «Beshikka solish» marosimidan dabdabaligi, kengligi, ishtirokchilarining ko‘pligi bilan farq qiladi va birinchi farzandga bag‘ishlab o‘tkaziladi.

Beshik to‘yi deyarli transformatsiyaga uchramay yashab kelayotgan marosimlardan hisoblanadi. To‘g‘ri, hozir beshik yoniga quda tomon karovat, kolyaska, o‘yinchoqlar ham qo‘shib keltiradi, lekin bu narsalar marosim negizidagi etnomadaniy mohiyatni, mazmuni o‘zgartirgan emas, bu mazmun, mohiyat kelin-kuyovni farzand bilan tabriklash, ularning turmushiga yordam berish, ahil, inoq, serfarzand yashashlariga ko‘maklashishdan iboratdir. Oila ijtimoiy nigoh ostida, uning mustahkamligi barchaning ishidir.

**Soch olish** go‘dakning tug‘ma sochini olish bilan bog‘liq eng qadimgi marosimdir. Uni izzat-hurmatga ega otaxon yoki onaxon olib borgan. Olingan soch og‘irligi tortib ko‘riladi va unga teng hajmda oltin-kumush bahosida beva-bechoralarga sadaqa qilinadi. “Soch olish” marosimi tor oilaviy davrada o‘tkazilgan.

Xalqimiz qadim zamonlardan «**Tish chiqishi**» marosimini o‘tkazib keladi. Birinchi tish chiqishi ko‘p hollarda ancha og‘ir bo‘lib, turli kasalliklarga olib kelgan. Keksalarning aytishlaricha, tegishli rasm-rusumlarga amal qilinsa, bolaning tishlari tekis, og‘riqsiz chiqar emish.

Ilgari “Tish chiqishi” marosimiga qudalar, qarindoshlar chaqirilgan. Hozir u oila davrasida bola boshidan oq jo‘xori sochib o‘tkaziladi. Buning uchun go‘dakning onasi jo‘xoridan bodroq tayyorlaydi, jo‘xori bodirab ochilganda bolaning tishini chiqishi ham tezlashadi, degan qarashlar mavjud.

**Birinchi qadam** bolaning mustaqil qadam qo‘yishini nishonlash marosimidir. Go‘dak yurishga intila boshlagach, uning onasi, buvisi, yaqin

kishilari hamda qo‘shni bolalar to‘planishib, bolaning oyoqlarini chiroyli ip bilan bog‘lab, orasidan kulcha yumalatishgan. Ushbu kulchaga ega bo‘lish uchun yig‘ilgan bolalar jon-jahdlari bilan harakat qilgan, chunki bunday kulcha xosiyatli, tabarruk sanalgan. Bolalardan biri kulchani olib qochgach, qolganlari uni quvlab ketadilar. Shu vaqtda bolalarning orqasidan talpinib turgan go‘dakning oyoqlaridagi iplar yechib (qirqib) yuboriladi. Go‘dak bolalarning orqasidan intiladi va ko‘p hollarda yurib ketadi.

«Ajodlarimiz bu marosimda «bolaning beli baquvvat bo‘lsin» deb, beliga belbog‘ bog‘lashgan; «to‘qlik bo‘lsin, bola ocharchilikni bilmasin!» deb mazali kulchalarni kichkintoylarga tarqatishgan; «suvdek serob bo‘lsin!» deb, bolaning qadam bosgan yerlariga suv sepishgan; «bolaning hayoti shirin bo‘lsin!» deb, boshidan shirinliklar sochishgan; «chiroyli bo‘lsin!» deb, yo‘llariga gullar sochishgan; «boy bo‘lsin!» deb, boshidan pullar sochishgan; «kasalga chalinmasin!» deb, isiriq tutatishgan; «ko‘z tegmasin!» deb, ko‘zmunchoqlar taqishgan; «kinna kirmasin!» deb, duolar o‘qishgan va hokazo»<sup>23</sup>.

Hozir «Birinchi qadam» kichik oilaviy marosim tarzida onda-sonda uchraydi.

**Sunnat** musulmonchilikda farz va qarz sanalgan o‘g‘il bolaning xatna qilish bilan bog‘liq marosimdir. U, birinchidan, to‘yga tayyorgarlik ko‘rish odatlari («Maslahat oshi», «Jar-to‘yga aytish», «Tandir soldi», «Qozon qurdi», «Sabzi to‘g‘rash»), ikkinchidan, asosiy tadbirlar («Mehmon kutish», «Qo‘noq olish», ziyofat-bazm berish, tomosha, o‘yinlar uyushtirish), uchinchidan to‘ydan keyingi tadbirlar (to‘yda xizmat qilganlarni taqdirlash, ularga alohida ziyofat berish, sovg‘alar in’om etish, «to‘y bola»ning holidan xabar olish)dan iboratdir.<sup>24</sup> Ularning tashkilotchilari asosan erkaklardir. Sunnat to‘ylari XX asrning 80-90 yillarida katta dabdaba bilan o‘tkazilgan. Jumladan, nahorda “Osh” marosimi, peshin vaqtida “Xotin oshi”, kechqurun “Erkaklar bazmi” nishonlangan. Bugun bu

---

<sup>23</sup> Qoraboyev U.H. O‘zbek xalqi bayramlari. –T.: Sharq, 2002. -121-122 b.

<sup>24</sup> O‘sha joyda. -123 b.

marosim ham ixchamlashib, transformatsiyaga uchramoqda va ko'p hollarda "Beshik to'yi" yoki "Qovurdoq" marosimlariga qo'shilib nishonlanmoqda.

«**Muchal to'yi**»ni xalqimiz 12-13, 24-25, 36-37, 48-49, 60-61 va hakoza yoshlarda nishonlab keladi. U erkaklarga ham, ayollarga ham taalluqlidir. Muchal yoshlarining ichida ayniqsa 12 yosh keng nishonlangan. Buning boisi, birinchidan u ilk muchal yoshi hisoblansa, ikkinchidan bolalikdan o'smirlikka o'tish davridir. Odatda, muchal yoshi nishonlanayotgan insonni bo'yi barobar oq mato o'lchab olinadi va biror ziyoratgohga shukronalik ramzi sifatida ehson qilinadi.

Ilgari u oila davrasida nishonlangan, hozir unda qarindosh-urug'lar, hamkasblar, qo'shnilar ham qatnashishi kuzatiladi.

«**Mo'ylov oshi**» o'smirning ilk mo'ylovi chiqqanda otasi tomonidan tanish-bilishlarga osh damlab, ziyofat berish marosimi bo'lib, shu marosimdan keyin o'smir erkaklar safiga qo'shilgan hisoblanadi. "Mo'ylov oshi" o'tkazilmasdan oldin o'smir mo'ylovini olishi mumkin emas.

**Nikoh to'yi** o'zbek xalqi etnik madaniyatidagi muqim saqlanib kelayotgan, tashkiliy nuqtai nazardan transformatsiyalarga uchragan bo'lsa-da, ijtimoiy mohiyatiga ko'ra insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etuvchi milliy qadriyatlardan biridir.

Ayol - ona farzandi tug'ilganidan boshlab, sep yig'a boshlagan. Bu odat qiz bola tug'ilganida ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Xalqimiz «Qiz bola beshikka tushdi, sarposi sandiqqa tushdi» degan maqolni bejiz yaratmagan.

Nikoh to'yi bilan bog'liq «**qiz ko'rar**» yoki «**sovchilik**» udumi muhimdir. Ushbu udum yoshlar taqdiriga hal qiluvchi ta'sir etgan. Sovchilik respublikamizning aksariyat viloyatlarida gapga chechan, uddaburon, shu bilan birga, mahalla-ko'y orasida hurmat-e'tiborga sazovor ayollar zimmasiga yuklatilgan. Sovchilik katta mas'uliyat, aql-farosat, ziyraklikni talab etgan. Sovchilar ko'z ostiga olingan xonadon sohiblarining tag-tugini, kelib chiqishini, mahalla-kuyda tutgan o'rnini, bo'lg'usi kelinning xulq-atvorini, sog'lig'ini qo'ni-

qo‘shni, tanish-bilishlardan surishtirishgan. Qiz xonadonining toza-orastaligi ham nazardan chetda qolmagan.

Sovchilik va sovchi kutishning o‘ziga xos nozik jihatlari bor. Sovchilarga hech qachon qo‘pol muomala qilinmagan. Qiz tomonga sovchilar ma’qul kelsa, “maslahatlashib ko‘raylik”, aksi bo‘lsa “qizimiz hali yosh” yoki “va’da bergan odamimiz bor” degan javobni berishgan. Bundan tashqari sovchilar olib kelgan non va shirinliklarni olib qolish rozilik, qaytarib yuborish rozi emaslikni bildirgan. Odatda, sovchilar qizning hurmati uchun 3 marta qatnashgan, shundan keyingina rozilik berilgan. Kelin tomondan rozilik javobini olib kelgan sovchilar kuyov tomondan bosh-oyoq sarpo bilan taqdirlangan.

Buxoro viloyatining ko‘plab tumanlarida sovchilikka dastlab erkaklar - mahalla oqsoqoli, yigitning tog‘asi, amakisi borishgan. Xorazmda ham sovchilikka obro‘-e’tiborga, hayotiy tajribaga ega ikki, uch kishidan iborat erkaklar borgan. Qiz tomonning rozilik alomati sezilgach, sovchilikka ayollar yuborilgan.

Hozir juftini tanlash yoshlarning ixtiyoridadir. Yigit va qiz uchrashib, birlarini sinab ko‘rishadi, agar ular bir-biriga mos kelsa, «Oq o‘rar» marosimi o‘tkaziladi.

**Oq o‘rar** marosimida qiz tomon rozilik alomati sifatida sovchilar tuguniga oq mato solib qo‘yadi. “Oq o‘rar” ikki yoshning boshi bog‘langanligi belgisi hisoblanib, shu marosimdan so‘ng qiz egalik sanaladi va uning uyiga boshqa sovchilar kelmaydi.

Buxoro viloyatida rozilik alomati sifatida ro‘mol beriladi. Xorazmda erkak sovchilar rozilik javobini olgach, ayollar qiz xonadoniga “Eshik ochar”ga boradilar. “Eshik ochar” marosimida kelin tomon sovchilarga oq ro‘mol beradi.

**Fotiha** yoki «**Non sindirish**» marosimida kuyov tomonidan ikkita-uchta erkak, ikkita ayol kelin xonadoniga turli noz-ne‘matlar, sovg‘a-salomlar bilan tashrif buyuradi. Marosimda “Fotiha” (rozilik, boshi bog‘langanlik) ramzi bo‘lgan patir non sindiriladi. Har ikkala tomon to‘y kunini belgilab, sarf-xarajatlar haqida kelishib oladi.

Andijon viloyatida fotiha kuni kechki payt yigit xonadonida jo‘ralari to‘planib “Mazar yedi” marosimi o‘tkaziladi. Mazar-varaqi somsa bo‘lib, qiz tomondan boshqa noz-ne‘matlarga qo‘shib yuboriladi.

Samarqandda fotiha to‘yida kelin tomon nahorda xalqqa osh beradi. Osh sarf-xarajatlarini kuyov tomon ko‘taradi.

“**Dasturxon qaytdi**”, “**Quda quvdi**” respublikamizning ko‘plab tumanlarida “Fotiha to‘yi”dan keyin bir necha kun o‘tgach, kelin tomon kuyov tomon yuborgan barcha tog‘oralarni turli taom va shirinliklar bilan to‘ldirib kuyov xonadoniga olib keladi. Toshkentda kuyov tomon tog‘oralari o‘sha kuniyoq to‘ldirilib, qudalarga berib yuborilishi sababli bu marosim o‘tkazilmaydi.

«**Uy ko‘rar**» kelin tomondan ikki-uch nafar ayol kuyov yigit xonadoniga «uy ko‘rgani» tashrif buyurishidir. Marosimda asosan ayollar ishtirok etadi. Ular kuyovning uy-joyini, kelin uchun ajratilgan xonalarni ko‘zdan kechirib, kelin sepini qayerga va qanday joylashtirishni rejalashtiradi. Bu marosim hozir ham nikoh to‘yining muhim qismi hisoblanadi.

«**Paxta solar**» har ikki quda tomon ayollarining bo‘lajak kelin-kuyovga atab tayyorlaydigan yangi ko‘rpa-to‘shaklar bilan bog‘liq marosim bo‘lib, ayollar hashari hisoblanadi. Ayollar yangi tayyorlanayotgan ko‘rpa-to‘shaklar ustiga hayotlari shirin bo‘lsin degan niyatda shirinliklar, uvali-juvali bo‘lsin degan niyatda don sochishgan.

Ko‘rpa qavishga ayollar, birinchidan, to‘y qilayotgan xonadon egalariga yordam berish, ikkinchidan, duo, savob olish, uchinchidan, Alloh o‘zlarini ham shunday to‘ylarga yetkazishini so‘rash, to‘rtinchidan, yordam bahona muloqot qilib, dam olish va hordiq chiqarish uchun borganlar.

«**Mol yoyar**» alohida marosim sifatida XX asrning 70-yillaridan keyin paydo bo‘lgan. Undan oldin kelinning sepini nikoh to‘yining ertasiga kuyov xonadonida «yotib qolgan» ayollar yasatishgan. 1970-yillardan keyin «mol yoyar» marosimi uchun maxsus bir kun (odatda, nikoh to‘yidan 6-7 kun oldin) belgilangan.

Andijon viloyatida “Mol yoyar” nikoh kuni o‘tkaziladi. Shu kuni ertalab qiz uyida “Nonushta oshi” tarqatiladi. Taomilga ko‘ra yigit tomondan ikki-uchta ayol kelib “Ko‘rpa yiqitar” marosimini o‘tkazadi, ya’ni kelin-kuyov uchun atalib, chiroyli qilib “taxt urilgan” ko‘rpa-to‘shaklarni kuyov uyiga olib ketishga rozi bo‘lganlik ma’nosida “buzib”, ag‘darib beradilar. Kelinning moli kuyov xonadoniga olib kelingach, yangalar quda tomon “ko‘rpa haqi” bermaguncha yuklarni tushirmay oyoq tirab turib olishadi. Bu urf-odat kelinning qadrini baland ko‘tarish uchun amalga oshirilsa-da, zamirida nikoh to‘yining rang-barangligi, qiziq hangomalarga boyligini oshirish maqsadi yotadi.

«Mol yoyar» marosimida kelin tomonlik ayollar uy bezatishdagi badiiy-estetik didini, kuyov tomonlik ayollar esa pazandalik mahoratini namoyon etadi.

“**Non yopish**” marosimi ba’zi viloyatlarda, jumladan Xorazmda to‘ydan uch kun oldin boshlanadi va to‘ygacha davom etadi. Kuyovning amma-xolalari yig‘ilib to‘y dasturxonini uchun non yopadilar. Bu marosim to‘y bo‘layotgan xonadonga to‘planish va to‘y egalariga yordam berish niyatida qilinadi.

«**Qiz oshi**» («Qizlar bazmi», «Qiz majlisi») marosimi qadimda nikoh to‘yidan bir hafta yoki bir necha kun oldin o‘tkazilgan. Bo‘lajak kelin xonadonida dugonalar, qarindosh, qo‘shni qizlar to‘planishib, doira, dutor chertib, turli laparlar kuylab, o‘yin-kulgu qilishgan. “Qiz oshi” kelinni dugonalari bilan hayrlashish marosimi hisoblangan.

70-90 yillarda Toshkentda “Qiz oshi” marosimining tub mohiyati unutilib, nikoh to‘yi darajasida o‘tkazila boshlandi. Marosimda kelinning dugonalari, ayollar bilan birgalikda yigitlar va erkaklar ham ishtirok eta boshladilar. Ba’zan, kelin-kuyovning nikoh kiyimida ishtirok etish hollari ham kuzatildi. 90-yillarga kelib «Qiz oshi» iqtisodiy qiyinchiliklar bois unutila boshlandi. U hozir kamdan kam o‘tkaziladi.



“**Sabzi to‘g‘rash**” udumi xalqqa osh berish marosimidan bir kun oldin kechki payt o‘tkaziladi. Ishtirokchilari asosan erkaklar bo‘lib, osh uchun tayyorlangan savzi archib, to‘g‘raladi va ziyofat uyushtiriladi.

“**Osh**” marosimi. Toshkentda nikoh oshi odatda qiz tomonda nahorda o‘tkaziladi, harajatlarni kuyov tomon ko‘taradi. Faqat erkaklar qatnashadi. Bugungi kunda “Osh” marosimi kafe va restoranlarda o‘tkazilmoqda. Bu marosim Buxoroda «Padar oshi» deyiladi. Surxondaryoda to‘y kuni qiz tomon ham, yigit tomon ham xalqqa osh beradi.

“**Kuyov navkar**” (“Kelin oshi”) nikoh kuni kuyovning jo‘ralari bilan birgalikda kelin xonadoniga uni olib ketish uchun karnay-surnay sadolari ostida, kuyovjo‘ralar raqsga tushgan holda tashrif buyurish marosimidir. Marosimdagi eng qiziq odatlardan biri bu – kuyovjo‘ralar tomonidan kuyov poyiga solingan poyondozni talashish odatidir. Ular biz ham kuyov bo‘laylik, degan yaxshi niyatda poyondozni jon-jahdlari bilan talashib-tortishadilar va oxir-oqibatda bir parchadan bo‘lib oladilar. Marosimda kuyov va kuyovjo‘ralar quyuk mehmon qilinadi, albatta milliy taom - osh tortiladi. Kuyovga zar to‘n va salla kiydiriladi. Kuyovjo‘ralar tomonidan “Kuyov o‘tirmayapti” (kelin yangalar qavat-qavat yangi ko‘rpachalar solib bermaguncha kuyov o‘tirmasdan tik turaveradi, bu odat ham kuyovning qadrini baland ko‘tarish uchun qilinadi), kelin yangalar tomonidan esa “Isiriq solish”, “To‘n sotish”, “Dastro‘mol ulashish”, kabi hazilga yo‘g‘rilgan urf-odatlar bajariladi.

Toshkent shahri va uning atroflarida kuyov va kuyovnavkarlar o‘tiradigan uyning to‘riga, burchakka kuyov uchun oq matodan chimildiq ilinadi. Kuyov xonaga birinchi bo‘lib kiradi va chimildiqni o‘rtasidan yirtib, tepaga ilib qo‘yadi.

Toshkent viloyatining Yangiyo‘l tumanida kuyovnavkarlar uchun bezatilgan dasturxonda har bir kishi uchun bittadan tuxum qo‘yib ustini piyola bilan yopib qo‘yiladi. Bu odat kelin-kuyovning serfarzand bo‘lishi uchun amalga oshiriladi.

Sirdaryo viloyatida kuyovjo‘ralar hazillashib, choynakning jo‘mragini sezdirmasdan biror narsa bilan berkitib qo‘yib, kelin yangadan choy quyib berishni so‘raydilar.

Jizzaxda kuyovnavkarlar taomlarni yeb bo‘lgach, idishga pul soladilar. Kuyovnavkarlar oyoq kiyimlarini hushyorlik bilan qo‘riqlamasalar kelin yangalar ularni berkitib qo‘yadilar va rozi qilinmaguncha bermaydilar.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida kuyovnavkarlarga “To‘qqiz tovoq”, ya’ni to‘qqiz xil taom tortiladi. Kuyovjo‘ralar dugonalari davrasida o‘tirgan kelinni olib chiqish uchun qizlarga “Kelin haqi”, “Ajratqi” to‘laydilar. Surxondaryoda kuyov kelinni olib chiqish uchun xonaga kirganidan foydalanib, uning oyoq kiyimini berkitib qo‘yadilar. Kuyov qizlarga tovon puli to‘lagachgina, oyoq kiyimini qaytarib beradilar. Kelin tomon vakillari kuyovni o‘tin yordirib, tosh ko‘tartirib va yana boshqa usullar bilan sinab ko‘radilar. Milliy liboslarda o‘tirgan kelin-kuyov bilan turli irim-sirimlar o‘tkaziladi. Doim birga bo‘lishsin, degan niyatda kelin va kuyovning kiyimlari bir-biriga ip bilan tikiladi. Rizq-nasibali bo‘lish uchun kelin go‘sht to‘g‘raydi, kuyov ilik yeydi. Ikki yoshning yelkasidan un sochiladi. Qashqadaryoning Koson tumanida kelinni kuyov xonadoniga otga mindirib, ba’zi tumanlarda ot-aravada, ba’zilarida mashinada olib boradilar. Kuyovnavkarlar kelinni olib ketishayotganda kelin tomonlik yigitlar arqon tortib yo‘l to‘sishadi, kuyov tomon sovg‘a-salom bergach, yo‘lni ochadilar. Bu odat kelin tomonlik yigitlarning g‘ururini ko‘rsatish, kelinning qadrini ko‘tarish uchun qilinadi.

Andijonda kuyovnavkarlar oldiga pishirilgan butun o‘pka va to‘sh qo‘yiladi. Bu odat kuyov o‘pka-gina qilmasin degan niyatda bajariladi.

## X U L O S A

Insonoyat jamiyati doimo rivojda bo'lib, u o'zgarib takomillashib boradi. Turli tarixiy davrlarda va xilma-xil madaniyatlarda odamlar dunyoni o'zgacha anglaydilar va qabul qiladilar, o'zlariga xos ravishda tasavvurlari va bilimlarini hosil qiladilar. Biz hozirgi davrdagi mavjud muammolarga o'xshash bo'lgan to'siqlarni o'tmishda odamlar qanday qilib yengib o'tganlarini o'rgana borib o'tmishga savollar bilan murojat qilamiz, o'tmish bizga javob qaytaradi va shu bilan o'tmish, hozirgi zamon va kelajak o'rtasida doimiy muloqot bo'lib turadi.

Madaniyat- jamiyatning mahsuli, ijtimoiy hayotning eng muhim jabhalaridan biridir. Madaniyatsiz jamiyat bo'lmaganidek, madaniyat ham jamiyatdan tashqarida mavjud bo'lmaydi. Murakkab ijtimoiy voqeyilik sifatida madaniyatning o'ziga hos xususiyati shundaki, u insoniyat avlodlarining mehnati va bilimlarini o'ziga singdirib oladi, saqlaydi va doimiy boyitib boradi. Madaniyat ijtimoiy hayotning vorisligi, qadryatlarni to'plashi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan sohalarni ifodalaydi.

Ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida madaniyatni jamiyatda tutgan o'rni, jamiyatning mazmuniga va tahlil qilinayotgan ijtimoiy borliqning xususiyatga bog'liqdir. Ijtimoiy jarayon, kishilarning, ularning harakati, ya'ni sotsial faoliyati madaniy ideallarni, qadriyatlarni normalarni qaror toptirilishi yoki barham berilishida vosita vazifasini, shuningdek kishilarning ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarning shaxslararo va guruhlararo aloqalari shakli vazifasini ham bajaradi.

Madaniyat ijtimoiy hayotning tarkibiy va funksional jabhalarida ifodalanadi. Shu jihatdan jamiyat madaniyatni vujudga keltiradi. Jamiyatda vujudga kelgan madaniyat qanchalik murakkablashib boyib borsa, uning insonga va jamiyatga ta'siri mukammallashib va nisbiy mustaqilligi kuchayib boradi. Masalan, antic jamiyat allaqachon o'tmish, tarixga aylangan bo'lsa-da, uning madaniyati hozirgi kunda o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda yoki biz bu davr madaniyatini o'sha

vaqtdagiga nisbatan ko'proq bilamiz. Shuning uchun madaniyatga jamiyatning mahsuli, faoliyat uslubi sifatida qaralsa-da, har bir jamiyatni u yoki bu konkret madaniyatning shakllanish manba tarzda ham qarash mumkin.

Shaxsning komillikka erishuvini taminlashda jamiyatdagi mehnat madaniyatini rivojlantirish, kishilarning siyosiy ongligini oshirish, ahloqiy va estetik nafosatni tarbiyalashda madaniyatning tarkibiy qismlari, sohalari katta vazifani bajaradi. Shaxsni sotsial jihatdan farqlanishga ko'ra insonning mehnat madaniyati, munosabat madaniyati, ahloq madaniyati, badiiy tafakkur madaniyati, dunyoqarashi, ruhiy olami haqida gapirish mumkin. Madaniyat ijtimoiy tuzilma sifatida ilmiy bilimlarni, tafakkurini, axloqiy-estetik qadryatlarni, axloqiy-huquqiy nizomlarni, urf-odat va an'analarni qamrab oladi.

„Inson eng oily darajadagi tarixiy mavjudotdir. Inson tarixiy davrida, tarixiy davr insonda mujassam” (N. Berdyayev). Negaki, har qanday davrning hususiyati va darajasi madaniyat rivoji bilan o'lchanadi.

Kishining madaniy saviyasi qanchalik tor bo'sa u hamma yangiliklarga va „juda eski”likka nisbatan shunchalik befarq bo'ladi. O'zining eski odatlari bilan yashaydi. Dunyoqarashi tor bo'lib hamma narsaga shubha bilan qaraydi. O'tmishning madaniy qadryatlarni va o'zga millatlar madaniyatlarini bilish, uni saqlash, ko'paytirish, estetik qimmatlarini qabul qila bilishning rivojlanib borishi madaniy taraqqiyotning eng muhim vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Insoniyat madaniyati rivojlanishi tarixi bu nafaqat yangi, balki eski madaniy qimmatlarini izlab toppish tarixidir. Shuningdek, o'zga madaniyatlarini bilish, ma'lum ma'noda gumanizm tarixi bilan qo'shilib ketadi.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, jamiyat hayotidagi mavjud muammolarni faqat iqtisodiy, siyosiy tadbirlar va huquq- tartibotini mustahkamlash bilangina to'la hal qilib bo'lmaydi. Buning uchun jamiyatning ma'naviy hayotini ham qayta qurish talab etiladi. „Manaviyat yo'q joyda- degan edi prezident Karimov I.A- hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi”

## Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida -T.: O‘zbekiston, 2011.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -T.: 2008. 29 – 30 betlar.
3. Karimov.I.A. O‘zbekistonning uz istiqlol va taraqqiyot yo‘li.- T.:O‘zbekiston, 1999.
4. Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yuq...-T.:1998.
5. Karimov.I.A. Barkamol avlod orzusi.- T.:Sharq,1997.
6. Karimov.I.A. Istiqlol va ma’naviyat. -T.:1994.
7. Karimov I. “Bizdan ozod va obod vatan qolsin”. T. “O‘zbekiston”, 1994.
8. Karimov I. “O‘zbekiston: ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning asosiy tamoyillari”. T. “O‘zbekiston”, 1995.
9. Karimov I. “Iroda va iymon e’tiqodimiz sinovi”. T. “O‘zbekiston”, 1996.
10. Karimov I. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari”. T. “O‘zbekiston”, 1997.
11. Karimov I. “Alloh qalbimizda, yuragimizda”. T. “O‘zbekiston”, 1999.
12. Karimov I. “Hushyorlikka da’vat”. T. “O‘zbekiston”, 1999.
13. “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti”. O‘quv qo‘llanma. Toshket Moliya Instituti. T. 2004.
14. Prezident Islom Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari ” asarini o‘rganish bo‘yicha Metodik Qo‘llanma. T. “Universitet”. 1997.
15. Otamurodov S., Husanov S., Ramatov J.. “Ma’naviyat asoslari” A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent 2002 yil.
16. Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati. –T.: 2007. - B. 218.
17. Yoshlar o‘rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish yo‘llari (ilmiy-uslubiy tavsiyalar). T. «Universitet» - 1996.

18. Abdullayev A. Ma'naviyat va iqtisodiy tafakkur. – T.: “Ma'naviyat”, 1999 yillar, 7-betlar
19. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining g'oyaviy asoslari. T., “Sharq”, 2001 yil.
20. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar (izohli ko'rgazmali vositalar to'plami). T., “Yangi asr avlodi” 2001 yil.
21. Sobirov M. “Milliy istiqlol mafkurasi: mohiyat manbalari va ijtimoiy vazifalar” T., 2001 yil.
22. U.Qoraboyev “O'zbekiston bayramlari” T.
23. Xudoyberdiyev E. Ma'naviyatning tarkibiy qismlari, ularning o'zaro munosabatlari va rivojlanish xususiyatlari, T., “Yangi asr avlodi” 2010 yil.
24. Xudoyberdiyev E. “Milliy g'oya va ma'naviyatni shakllantirishning ijtimoiy asoslari” (O'quv qo'llanma) Toshkent 2010 yil.
25. Xudoyberdiyev E. “Ma'naviyat asoslari” fanidan o'quv qo'llanma, Toshkent 2010 yil.
26. Xudoyberdiyev E. “Ma'naviyat, iqtisod va ularning o'zaro bog'liqligi” (o'quv uslubiy qo'llanma) Toshkent 2007 yil.
27. Nishonboyev Q., Ergasheva I., Munavvarova M., “Ajdodlardan meros – yengilmas kuch” (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” kitobini o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha metodik qo'llanma) Toshkent 2008 yil.
28. Shodiyev G'. “Ma'naviyat va yoshlar”T., “Abu matbuot konsalt” 2008 yil.
29. Boboyev F., G'ofurov Z. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. T.: “Yangi asr avlodi”, 2001 yil . Buyuk siymolar, allomalar. T.: “Ma'naviyat”, 1995 yil.
30. Milliy istiqlol g'oyasi asosiy hususiyatlari, falsafiy va tarixiy ildizlari. Mas'ul muharrir Q. Nazarov. Toshkent 2001 yil.
31. Jo'rayev N. Mafkuraviy immunitet. T.: Ma'naviyat 2001 yil.
32. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. – T.: O'zbekiston 2001 yil.
33. Paxrutdinov SH. Taxdid – halokatli kuch. – T.: “Akademiya” 2001 yil.

34. Otamurodov S., Mamashokirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy taxdidilar – T.: “Yangi asr avlodi”, 2001 yil.
35. Otamurodov S. O‘zbekistonda ma’naviy-ruhiy tiklanish. T: - Yangi asr avlodi. 2003 yil.
36. Imomnazarov M. «Milliy ma’naviyatimiz takomil bosqichlari». T.: 1997.
37. Sulaymonova F. «Sharq va G‘arb».T.: «O‘zbekiston» 1997.
38. «O‘zbekiston xalqlari tarixi». 1-jild.T.: «Fan», 1992.
39. B. Iskandarov. «O‘rta osiyo falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikrining shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar». T.: «O‘zbekiston» 1993.
40. I. Muminov. «Tanlangan asarlar» T. 1992.
41. I. Jabborov. «O‘zbek xalqi etnografiyasi». T.: «O‘qituvchi»,1994.
42. M.Imomnazarov «Milliy ma’naviyatimizga chizgilar». T.: 1998.
43. A.Erkayev «Ma’naviyat-millat nishoni». T.: 1998.
44. E.Yusupov «Inson kamolotining ma’naviy asoslari». T.: «Universitet», 1998.
45. «O‘zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi». T.: «O‘zbekiston»,1993.
46. U.Qoraboyev «O‘zbekiston bayramlari» T.: «O‘qituvchi», 1991
47. SH.Alimova “Ijtimoiy-madaniy faoliyat asoslari”. O‘quv qo‘llanma
48. T.:2007 S.Davlatov. „An’ana va marosim’’. Toshkent. „Fan’’. 2009.
49. Mamatqul Jo‘rayev, O‘tkir Tohirov. „Ostonosi tillodan’’(Ostonasi tillodan folklor ekspeditsiyasining ilmiy safarnomasining 1-qismi)Toshkent-2003

#### **Internet saytlari.**

1. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz)
2. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
3. [www.press-servise.uz](http://www.press-servise.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
5. [www.ziyo.edu.uz](http://www.ziyo.edu.uz)
6. [www.performance.edu.uz](http://www.performance.edu.uz)
7. [www.tseu.fan.uz](http://www.tseu.fan.uz)